

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
IJTIMOIY PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA MAKTABGACHA
TA‘LIM KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani _____ dots.B.Jo‘rayev
“ _____ ” _____ 2013 yil

Mo‘minov Faxriddinning

“5141700-Maktabgacha ta‘lim va sport tarbiyaviy ish” yo‘nalishi bo‘yicha
bakalavr darajasini olish uchun

**Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning
samarali usullari** Mavzusida yozgan

Bitiruv makaviy ishi

Ilmiy rahbar: _____ pedagogika fanlari
nomzodi G.Eshmurodova

Qarshi - 2013

MUNDARIJA

Kirish3-8

I BOB. BOLALARNI TABIAT BILAN TANISH TIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning metodologik asoslari.....9-14
- 1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning tarixiyliigi.....15-24

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISH TIRISH TIZIMI

- 2.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni va uni tanlash tamoyillari.....25-41
- 2.2. Tabiat bilan tanishtirish uchun bolalar bog'chasining tabiat burchagi va yer maydonchasining ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati.....42-52
- 2.3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakl, metod va vositalari.....53-70

Xulosalar.....71-72

Foydalanilgan adabiyotlar.....73

Ilovalar74-75

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Fan – texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Bu masala mustaqil davlatimiz siyosatida o'z ifodasini topib, unda insonni o'rab turgan atrof - muhit, jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash ham nazarda tutilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlil bo'lish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

O'zbekistonda jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizastiya va isloh etish jarayoni ketmoqda. Ushbu jarayon samarasi ko'p jihatdan madaniy saviyasi baland barkamol inson shaxsini shakllantirishga bog'liq. Zotan, ana shunday shaxsgina ijtimoiy taraqqiyot mo'ljallarini va millat manfaatlarini chuqur anglab etadi, Vatan ravnaqi yo'lida xizmat qiladi. Shuning uchun ham, Prezident I.Karimov ma'naviyat sohasidagi ishlarimizning pirovard maqsadi "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat", - degan edi¹. Barkamol inson shaxsi ma'naviy qiyofasida ekologik madaniyat alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizning "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablarining asosiy maqsadi - yosh avlodni istiqloq mafkurasi asosida sog'lom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Binobarin, yosh avlodni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash respublikamizda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishning hal qiluvchi omili hisoblanadi.

"Millatni millat qiladigan yoshlar. Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishlari shart"- deb ta'kidlagan edi Prezident I.A.Karimov². Zero, ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalaridan biri jahon tarixi va madaniyati ilg'or yutuqlarini to'liq egallagan yangi avlodni tarbiyalashdan iborat.

Prezident I.A.Karimov qayd etganidek: "XXI asr bo'sag'asida, fan-texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Dunyoning jug'rofiy-siyosiy tuzilishi o'zgarimoqda. Bunday sharoitda inson tomonidan biosferaga

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. VIII том. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – 341 б.

² Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – 350б

ko'rsatilayotgan ta'sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiiy muhitni saqlab qolishning o'zaro ta'sirini uyg'unlashtirish, inson va tabiatning o'zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo'lib qolmoqda"dir³.

Atrof muhitni muhofaza qilish muammolari umuminsoniy ahamiyat kasb etayotgan, insoniyatning tabiiy muhitga yetkazgan salbiy oqibatlari qayta ko'rib chiqilayotgan bir paytda shu narsa ma'lum bo'ldiki, aholining barcha qatlamlarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish muammolari inson ongidagi o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq.

Bugungi kunda fan-texnika jadal sur'atlarda rivojlanib, inson va tabiat o'rtasidagi tabiiy muvozanat buzilayotganligi, tabiatga nisbatan jamiyat a'zolarida g'amxo'rlik sust ahvolga kelib qolganligi oqibatida atrof muhitga katta ziyon etmoqda. Ona tabiatga istiqbolni ko'zlab munosabatda bo'lish, kelajak avlodga uni go'zal va tabiiylikicha qoldirish bugungi kunning muhim vazifasi bo'lib turibdi. Chunki tabiatga nisbatan inson qanchalik berahmlik bilan munosabatda bo'lsa, tabiat ham insonga nisbatan aynan ana shunday javob qaytaradi. Har bir inson ongida ekologik madaniyat qay darajada shakllansa, jamiyat ham shu darajada taraqqiy etadi.

Hozirgi kunda shaxslararo munosabatlardan tortib jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi orasidagi ko'plab muammolar odamlar ongida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning talab darajasida emasligini namoyon etmoqda.

Shunday ekan, yoshlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning samarali shakl va metodlarini ishlab chiqish, shu kunning talabi bo'lib qolmoqda.

Atrof muhitga ongli munosabat natijasida ekologik madaniyat shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, tabiatga yetkaziladigan zararning oldini olish va bartaraf etishda munosib ishtirok etish, tabiat boyliklaridan oqilona foydalanish, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan iborat. U quyidagi tarkibiy qismlarni qamrab oladi:

- insoniyat tabiatning bir bo'lagi ekanligini his etish;
- tabiatni insoniyatning tug'ilish, yashash, rivojlanish makoni sifatida anglash va fikrlash;
- tabiat bilan jamiyatning uyg'unligiga doir tabiiy va antropogen bilimlar tizimiga ega bo'lish;
- tabiiy muhit bilan ongli munosabatga kirisha olish, uning holatlarini baholay bilish bilim va malakaga ega bo'lish;
- atrof muhitni tabiiy holda kelajak avlod uchun saqlash kabilar.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Tabiat muhofazasiga oid tarbiya g'oyalari O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr

1. ³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 328 б.

Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqa allomalarimiz asarlarida ilgari surilgan bo'lib, ularda tabiat va jamiyat birligi, o'zaro aloqadorligi, tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklarini asrab-avaylash, saqlash va ko'paytirish, tashqi muhitning tirik organizmlarga ta'siri kabi masalalar ilmiy asoslab berilgan.

Ilmiy adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, so'nggi yillarda ekologik ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni hal etish bo'yicha ko'pgina olimlarimiz, chunonchi, rus olimlaridan, akademik I.D.Zverev, professor A.N.Zaxlebniy, E.O.Turdiqulov, Yu.Sh.Shodimetov, B.Ziyomammedov, Sh.Mahmudova, S.Mamashokirov, Sh.T.Otaboev, A.S.To'xtaev], R.U.Beknazarov,, G.O.Komilova, Sh.Avazov , N.O'.Nishonova, L.Xudoyberdiev,, N.M. bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mavzularida tadqiqot ishlari olib borganlar.

Tadqiqot tahlilidan ma'lum bo'ldiki, umumiy o'rta ta'lim mazmuni ekologiyaga doir bilimlar bilan boyitilib, o'quvchining ekologik savodxonligini rivojlantirish muammosi deyarli hal etilgan. Umumiy o'rta ta'lim, akademik listey va kasb-hunar kollejlari tizimida ekologik ta'lim-tarbiya yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo, uzluksiz ta'lim tizimining asosiy va muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'limda bolalarga uzviy va uzluksiz ta'lim berish asosida, ularda bolalarni tabiat bilan tanishtirish muammosi ilmiy-metodik jihatdan hal etilmagan.

Bu hol bo'lajak mutaxassislarining kasbiy va ma'naviy faoliyatiga salbiy ta'sir etadi. Davr esa barcha insoniyatga jumladan, yoshlarni tabiat bilan tanishtirish zarurligini taqozo etmoqda.

Bolalar bilishlari zarur bo'lgan tabiat xakidagi bilimlar mazmunini aniqlab, o'qitish metodikasini ishlab chiqish ta'lim tizimi uchun muhim pedagogik muammo hisoblanadi. Shu jihatdan Bolalarga tizimli ta'lim berish orqali ularning tabiat bilan tanishtirishni tadqiq etish zaruriyati paydo bo'ldi. Ana shu zaruriyat bizni "**Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning samarali usullari**" mavzusini tanlashga yo'lladi.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning samarali usullarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti: Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni.

Bitiruv malakaviy ish predmeti: Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni, shakllari, metod va vositalari.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi. Agar:

-Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish masalalari uzluksiz ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida qaralsa;

-Bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayoni inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni uyg'unlashtiruvchi tizim sifatida yondashilsa;

-Bolalar yoshi, kizikishini e'tiborga olgan holda, ularga beriladigan tabiat xakidagi bilimlar mazmuni boyitilsa va kengaytirilsa;

-Bolalarda tabiat xakidagi bilimlarni shakllantirishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanilsa;

-Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning tarixiy, milliy, ekologik qadriyatlar hamda hozirgi zamon mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolar bilan uzviy va uzluksiz aloqada amalga oshirilsa, Bolalarning ekologik madaniyati darajasi samarali bo'ladi va tabiatga nisbatan ijobiy munosabatlari rivojlanadi.

Bitiruv malakaviy ish vazifalari:

-maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish pedagogik muammo ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

-Bolalarning tabiat xakidagi bilimlarini shakllantirishda ta'lim-tarbiya tarixi tajribalarini tahlil qilish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan tanishtirishning mavjud holatini o'rganish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat xakidagi bilimlarni 'tiborga olgan holda, ularga beriladigan ekologik bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllari, metodlari, vositalarini belgilash va pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida Bolalarni tabiat bilan tanishtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish va ularning samaradorlik darajasini aniqlash.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning ekologiyaga oid asarlari, O'zbekiston hukumatining ekologiyaga doir qaror va me'yoriy hujjatlari, Sharq mutafakkirlarining ekologik tarbiya haqidagi fikrlari, ekologik muammolarga bag'ishlangan umumbashariy g'oyalar, inson va tabiatning o'zaro aloqadorligi qonuniyatlarini bilishga oid falsafiy qarashlar, inson salomatligi va ma'naviyatining ekologik muammolarga bog'liqligi to'g'risidagi qoidalarga tayanildi.

Bitiruv malakaviy ish metodlari: pedagogik tahlil, tarixiy-qiyosiy tahlil; pedagogik kuzatuv; tajribalarni o'rganish va umumlashtirish; anketa so'rovlari, savol-javob, suhbat; yangi pedagogik texnologiyalar

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi:

-maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy - nazariy jihatdan asoslandi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar yoshini hisobga olgan holda, ularga beriladigan tabiat xakidagi bilimlar mazmuni boyitildi va kengaytirildi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllari, metodlari, vositalari belgilab berildi va pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi;

- maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikkita bob, 5 ta paragraf, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. BOLALARNI TABIAT BILAN TANISH TIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning metodologik asoslari

Ilmiy - texnika taraqqiyotining jadallashuvi, ishlab chiqarish texnologiyasining nomukammalligi, tabiatga nisbatan iste'molchilik an'analari - bularning barchasi jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqasidagi ziddiyatlar keskinlashuvining bosh sababidir.

Jamiyatning tabiatga ta'sir o'tkazish kuchi shu darajaga borib etdiki, natijada ular o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikka putur etib, tabiiy muvozanatning buzilishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda jahon fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanishi munosabati bilan tabiiy zaxiralardan xo'jalik maqsadlarida tobora ko'proq foydalanilmoqda. Buning ustiga dunyo aholisi yildan-yilga o'sib borib, ko'proq miqdorda oziq-ovqat, yoqilg'i, kiyim-kechak va boshqa narsalarni ishlab chiqarish talab qilinmoqda⁴.

Fan-texnika taraqqiyoti va uning yutuqlari insonlar uchun juda katta qulayliklar, imkoniyatlar yaratishi bilan birga tabiatga nisbatan nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

I.A.Karimov ekologik muammolarning asl mohiyati haqida fikr yuritar ekan, birinchi muammo - erning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavfning to'xtovsiz ortib borayotganini ta'kidlaydi. Ikkinchi muammo sifatida suv zaxiralarning, ya'ni er usti va er osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatib o'tadi. Uchinchidan, Orol dengizi fojiasi bilan bog'liq muammolarga e'tiborni qaratadi va buni xalqaro miqyosda hal etish yo'llarini tushuntirib beradi. To'rtinchidan, havo bo'shlig'ining ifloslanishi hamda Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarga to'xtalib, mazkur ekologik muammolarni hal etish yo'nalishlari, ya'ni ekologik xavfsizlikni kuchaytirish yo'llarini belgilab beradiki, bularning barchasi ekologik muammolarni bartaraf etishning konseptual asoslari bo'lib hisoblanadi⁵.

Tabiat boyliklari bo'lmish - yer, suv, havo nihoyatda ifloslangan, o'simlik va hayvonot olami ayrim turlarining mavjudligi xavf ostida qolgan. Shu sababli, atrof muhitni muhofaza qilish va uning zaxiralardan oqilona foydalanish asosiy masaladir.

Hozirgi paytda respublikada istiqbolga, ya'ni atrof muhitni muhofaza qilish va tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish bo'yicha 2005 yilgacha mo'ljallangan

2. ⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 328 б.

⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – 328 б.

Davlat dasturi ishlab chiqilgan. Tabiatdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish sohasidagi butun faoliyat ana shu dastur asosida tashkil etilgan. Dasturda respublikada ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, yirik shaharlar va shahar aglomerastiyalari kabilarda ekologik keskinlikka barham berish yo'llari belgilangan.

Bolalarni qar tomonlama rivojlantirish. Ularni barkamol qilib o'stirish tuqilgan kundan boshlab amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohatlarning bosh maqsadi aynan manna shunga yaratilgan. Yani o'sib kelayotgan yosh avlod, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan qolda, bolalar bog'chalarida farzandlarimizga beriladigan qar qanday bilim, ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan gururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim;

- bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish,
- tabiat bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish,
- bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish,
- o'zining , tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish,
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),
- bolalarning qissiyotini irodasini rivojlantirish,
- tabiat in'om etgan nematlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan qolda, bolalarni qar tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali – aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Mamlakatimiz Konstitustiyasining 50-moddasida "Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar"⁶, 55-modda "Er, er osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi va boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir"⁷ deb ta'kidlanadi.

Shuningdek, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish deb nomlangan 4-moddasida quyidagicha yoritilgan: "Tabiatni muhofaza qilish maqsadlariga erishish uchun davlat hokimiyati mahalliy idoralari, vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermerlik va kooperativ xo'jaliklar, shuningdek ayrim shaxslar xo'jalik, boshqaruv hamda boshqa faoliyatini amalga

⁶ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 36 б.

⁷ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: Ўн иккинчи чақириқ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг ўн биринчи сессиясида 1992 йил 8 декабрда қабул қилинган – Т.: Ўзбекистон, 2003. – 36 б.

oshirish jarayonida quyidagi qoidalarga amal qilishlari kerak: ... barcha turdagi ta'lim muassasalarida ekologiya o'quvining majburiyligi"⁸.

Shuningdek, "O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi" da ham Tabiatni muhofaza qilish qonuni talablarini buzgan yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan jazo choralarini ko'rish maqsadida Ekologiya sohasidagi jinoyatlar bo'limining, Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar nomli XIV bobining 193-204-moddalarida tasdiqlangan va amalda qo'llanilmoqda.

Tabiat va jamiyat orasidagi munosabatlar sohasida ekologik muammolar paydo bo'ladigan yo'nalishlarni aniqlash muhim pedagogik va psixologik muammo hisoblanadi. Bu muammo - insoniyatning tabiatga nisbatan munosabatlari (maqsadsiz, shaxsiy qiziqish, atrof muhitga nisbatan loqaydlik, ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan, iste'molchilik, ehtiyotkorona, faol-ijodiy) xususiyatini paydo qiladi. Bunday baholashga zarurat tabiiy omilning inson va jamiyat uchun muhim insoniy qadriyat ekanligidan hosil bo'ladi. Jamiyat a'zolarining farovonligi va huzur-halovati atrof muhit holatiga bevosita bog'liq.

Barcha yoshlar, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilar tabiat xakidagi bilim, madaniyat darajasini egallagan bo'lishi zarur. Eng muhimi ularda quyidagi tasavvurlar shakllanishi lozim:

- atrof muhitning mohiyati nimada?;
- tabiat insoniyat uchun yashash joyi-hayot beshigi;
- tabiat - inson tirikchiligi manbai;
- yashash maydonchasi, oxirati uchun makon;
- tabiat inson uchun g'amxo'r ona;
- tabiat inson uchun tajriba maydoni;
- tabiat boyliklariga ehtiyotkorona yondashuv;
- hayot zaxiralariga ongli va mas'uliyatli munosabatda bo'lish;
- atrof tabiiy muhitni qo'riqlash;
- atrof muhit (suv, havo, tuproq) ni iflos qilmasdan yashash;
- tabiat go'zalligini sevish, avaylash va uni uyg'unlikda rivojlantirish;
- biosfera, noosfera, yaqin koinot.

Tabiatning rivoji tufayligina hayot, inson va jamiyatning paydo bo'lish imkoniyati tug'ildi. Tabiat va uning sof komponentlarisiz inson yashay olmaydi, shunday ekan, insoniyat tabiatni e'zozlashga majbur va mas'uldir.

Insonning tabiatga munosabati uning ekologik madaniyati bilan teng darajada qaraladi. Bu esa jamiyatni rivojlantirish, insonlar hayotini farovonlashtirish, tabiat boyligi va go'zalligini asrab-avaylash vazifalari bilan uyg'unlashadi, ya'ni:

⁸ Табиат ва болалар. Чинор ЭНК, Тошкент вилояти табиатни муҳофаза қилиш қўмитаси. – Т.: 1997. – 130 б.

- fan-texnika taraqqiyoti va aholining talablariga asosan ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, tabiat zaxiralarining ilmiy-amaliy jihatlaridan oqilona foydalanish;

- barkamol shaxsni ekologik madaniyatining shakllanishi (madaniy, axloqiy, ilmiy-ma'rifiy va estetik jihatdan foydalanish uchun tabiatni asrash va yaxshilash)ga erishish;

- er sharida tirik mavjudotlarning yashab qolishi uchun havoning musaffoligi, tuproq va suv havzalarining sanitariya holatiga e'tibor qilish zarurligini tag'oza etadi.

"Avesto", "Quron", "Hadis" ilmi, o'tmish allomalarning tabiat haqidagi g'oyalari, milliy qadriyatlar va hozirgi zamon olimlarining fikrlariga tayangan holda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish vazifalari quyidagilardan iborat deb qaraymiz:

- tabiat insoniyat yashaydigan "beshik", hayot manbai, faoliyat maydoni, tarbiya manbai ekanligini anglash;

- "tabiat-jamiyat-texnika" tizimi tufayli yuzaga kelgan ekologik muammolarni anglatish;

- respublika hududidagi ekologik muammolar, ularning kelib chiqish sabablari, oqibatlar; katastrofik (kataklizma) holatdagi ekologik vaziyatlarni yaxshilash chora-tadbirlari haqida tushuncha berish;

- tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilik bilan tanishtirish;

- tabiatga nisbatan hurmat, ekologik qadriyat, ekologik me'yorlarni shakllantirish;

- shaxs dunyoqarashi tizimiga kiruvchi ekologik madaniyat, e'tiqodni tarkib toptirish kiradi.

Ana shu g'oyalarga muvofiq tabiat komponentlari: atmosfera; gidrosfera; litosfera; biosfera; yaqin koinot; quyosh va uning tizimiga oid bilimlar majmuasi asosida Bolalarning tabiat xakilagi bilimlarini rivojlantirish muhim ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Bolalarning tabiat xakilagi bilimlarni rivojlantirish, ularda tabiatga nisbatan ijobiy tuyg'u, qarash va harakatlarning shakllanishini ko'zda tutadi-ki, ular mahalliy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashib ketadi. Bolalarni tabiat xakidagi bilimlarini rivojlanishi tabiatni saqlab qolish, uning umrini uzaytirishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Bolalarni qar tomonlama tarbiyalashning asosi ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Bu vazifani amalga oshirishda tabiatshunoslikning roli katta.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni bog'cha yoshidan boshlamoq kerak.

Shunga ko'ra bolalar bog'chalarida murqak qalblarga ta'lim-tarbiya berayotgan tarbiyachilarning oldilarida eng muhim vazifalaridan biri ham bolalarning tabiat go'zalliklarini ko'ra bilishi, ini sevishi, tabiatda yuz beradigan voqea-hodisalar haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishi, qolaversa tabiat yaratgan boyliklardan oqilona foydalanish ruhida tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i lozim.

Yosh avlodni yetuk mutaxassislar, aqlan, ruhan kamol topgan, o'z Vatanini sevuvchi, uni ezozlovchi inson qilib tarbiyalashda ushbu sohaning urni beqiyos. Bola shaxsining muhimmal shakllanishida tabiat, unda bo'ladigan voqea-hodisalar, tabiat qonuniyatlari muhim rol uynaydi. Bolalar mana shular bilan tanishar ekanlar ham aqlan, ham axloqan, ham jismonan, ham ilmiy dunyo qarashlari mujassamlanib shakllanib boradi va ular tabiatini asrash, ehtiyot qilish va muqofaza qilish ruhida tarbiyalanadilar.

Inson tabiat mahsulidir. Insonni tabiat yaratgan kamolga yetkazgan. Shunday ekan, biz tabiatni ezozlashimiz, unga to'g'ri munosabatda bo'lib, tabiatni yana ham ko'rkamligiga, obodonlashtirish ishiga o'z qissamizni qo'shishimiz zarur. Yosh bolalarni har tomonlama kamol topshirish va tarbiyalash turli omillar asosida amalga oshiriladi. Buning eng samaralisi maktabagacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishdir. Sababi inson go'dakligidanoq tabiat qo'ynida o'sadi, ulgayib kamol topadi. Bolani go'dakligidan boshlab tabiatdan zavq olishga, tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatib borishimiz zarur.

Bu kursni o'qitish jarayonida talabalar tabiat bilan tanishtirish metodikasi fanining tashqil topishiga qissa qo'shgan pedagog psixologlarning ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan tanishadi. Sharq mutafakkirlarining, tabiatning qayotida insonning tutgan o'rni xaqidagi fikrlari va ilmiy asarlarini o'rganadilar. Talabalar tabiat burchagida, hayvonot olami, er maydonchasida o'sadigan o'simliklar dunyosi haqida bilimga ega bo'ladilar hamda ularni parvarish qilishning malaka va ko'nikmalarini egallaydilar.

Hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biri ekologik muammo. Shu sababdan ham bolalar bog'chalarida ham ekologik ta'lim-tarbiya berishga aloqida e'tibor berilmoqda. Tabiat bilan tanishtirish metodika fanida talabalarga ekologik ta'lim-tarbiya berish usullari, №izil kitob haqida qisqacha ma'lumot va «Qizil kitob» ga kiritilgan noyob o'simlik va hayvonot olami haqida ham bilim berishga katta o'rin berilgan.

Shuningdek, talabalar bolalar bog'chasidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish sohasidagi yangi tajribalarni ham o'rganib olishlari zarur. Buni ular o'sha bog'chalarda amaliyotda bo'lgan davrlarida o'rganadilar. Bolalarni tabiat qonun-qoidalari bilan tanishtirishning ahamiyati shundaki, ularning to'g'ri o'sib ulg'ayishiga, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga olib keladi. Bu bolaning shakllanishida, tabiatga, ona-Vatanga, tabiat boyliklariga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi.

Darhaqiqat, tabiatni muhofaza qilish ayrim kishilarning ishi deb qaralmasdan barchamizning ishimiz ekanligini esdan chiqarmasligimiz kerak. Bog'cha yoshidagi bolalarning har tomonlama kamol topishida tabiat bilan tanishtirishning o'ziga xos tarbiyaviy xususiyatlari bor. Bu jarayon turli vositalar, metodlar orqali amalga oshiriladi.

Tarbiat rang-barang. Uning imkoniyatlari ham cheksiz. Biz, tarbiyachilar, ana shu rang-baranglikni, imkoniyatlarni ko'ra bilishimiz, ulardan tarbiya jarayonida oqilona foydalanishimiz kerak. Biz nima uchun bolalarni qar tomonlama kamol

toptirish kerak deymizq Chunki inson organizmining imkoniyatlari beqiyosdir. Bu imkoniyatlar ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'proq foizini tashkil etadi. Faqat biz tarbiyachi- murabbiylar uni vaqtida parvarish qilsaq, uning o'sib voyaga etishi uchun sharoit yaratsak u, albatta, kurtak yozib, hosil beradi.

Ma'lumki, qar bir inson shaxsining o'ziga xos xususiyalari, ya'ni ehtiyoji, temperament tiplari, harakter xislatlari, istedodi, qobiliyatlari bo'ladi. Bu xususiyatlarning rivojlanishi, shakllanishi bevosita bola yashaydigan muqitga, tevarak-atrofga bog'liq. Demak, bola psixologiyasi ham tabiat bilan chambarchas boqlangan bo'ladi va ular bir-birini to'ldiradi, mustaqkamlaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi bog'cha sharoitida xilma-xil bo'lib, bunda bolalarning xususiyatlari, tabiat haqidagi tushunchasi qisobga olinib, elementar tushunchalardan tortib, bolalarga mos eng murakkab tabiat haqidagi tushunchalarni va tabiatda bo'ladigan voqea- hodisalarni bilib olishga o'rgatadi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasining anna shunday o'ziga xos shakllari bilan chegaralanmasdan, mavjud o'zgartirish, yangi ish shakllarini ishlab chiqish, qayot tajribalarini umumlashtirib qar bir tarbiyachi o'zining yashaydigan muqiti, sharoitiga mos usullarni topib amalda qo'llashlari kerak. Har bir tarbiyachi ijodiy izlanuvchan, kuzatuvchan, tabiatdan ilqom oladigan, qayotda dadil qadam tashlaydigan bo'lmog'i kerak. Bugungi talaba- ertangi mutaxassis. Shunday ekan, g'ozirgi talabalarga qo'yilayotgan talab yanada kattadir. Chunki hayotimiz doimo rivojlanishda, fan-texnika, ta'lim-tarbiya sohasida yangi-yangi qirralar ochilmoqda.

Xulosa qilganda, tabiat xakilagi bilimlarini rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning metodologik asoslariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) Bolalar yoshini e'tiborga olgan holda, tabiat xakidagibilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish hamda ta'lim tizimining barcha bug'inlarida fanlararo aloqalarni hisobga olgan holda, egallanadigan ilmiy bilimlar va ularning amalda tatbiq etilishining tarkibiy qismi sifatida qarab chiqish;

2) maktabgacha ta'lim muassasalarida atrof muhitni yaxshilash sohasida amaliy faoliyat turlari tuzilmasi va axborot vositalaridan foydalanishni ishlab chiqish;

Shuningdek, pedagogik fikrlarni faollashtirish va yuksak ekologik madaniyatli yosh avlodni tayyorlash sohasidagi amaliy ishlarni rivojlantirishda olimlar va pedagoglarning bugungi kundagi faoliyatini muvofiqlashtirish zarurdir.

1.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning tarixiyligi

Tabiat – bu insoniyat yashashi uchun buyuk makon, nozu-ne'matlar manbai bo'lib, uni asrash har bir insonning burchi, bu borada xalqimiz o'zining milliy-tarixiy an'alariga ega. Bu an'alar doimo rivojlantirilib, boyitib kelingan.

O'tmishdan ma'lumki, tabiat insoniyat uchun bebaho qadriyatdir. Tabiat, tug'ilish, yashash, o'sish-faoliyat maydoni. Inson tabiat bilan birga yashaydi, o'sadi, rivojlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng tabiatni muhofaza qilishga oid ma'naviy qadriyatlar ham xalq hayotida to'laroq namoyon bo'la boshladi.

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadim-qadim zamonlarda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil va tadbiq etish imkoniyati vujudga keldi⁹.

"Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa qaramay O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga xos an'alarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi" deb ta'kidlaydi I.A.Karimov¹⁰.

Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistonda bu muammoning echimiga intilish uzoq tarixga ega. Zero, "Sivilizastiya belgilarini asrab-avaylash qanchalik zarur bo'lsa..., yer va suvni asrab-avaylash ham shunchalik muhimdir.

Er, havo, suv va olov (Quyosh) Markaziy Osiyoda qadimdan e'zozlab kelingan, ajdodlarimizning zardushtiylikdan tortib to islomgacha bo'lgan barcha dinlari tomonidan munosib qadrlab kelingan"¹¹.

Ta'lim-tarbiyaning o'z oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalarini yaxshi bilmasdan turib Yosh avlodni tabiat bilan tanishtirishda ularni maqsadga muvofiq tarbiyalab bo'lmaydi. Buning uchun xalq manfaatlarini aks ettiruvchi tarbiyaning maqsadlari to'g'risidagi tasavvur qanday vujudga kelgan va bu tasavvurlar keyinchalik qanday rivojlanganligi hamda pedagogik tomondan qanday ta'rif va tavsif berilganini eslash maqsadga muvofiqdir.

Shuni aytish kerakki, hayotda har bir fanning yuzaga kelishi hayotiy zarurat natijasidir. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham ana shunday hayotiy zaruratning mahsulidir. Bu fan o'z oldiga ana shu tabiat elementlari vositasida

⁹ Махмудов Т. Авесто хақида. – Т.: Шарқ, 2002. – 63 б.

¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 683 б.

¹¹ Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. – Т.: Ўзбекистон, 1998. – 683 б.

Yoshlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo'yadi. Tarbiya esa pedagogikaning bosh vazifasidir.

Tabiat - bitmas-tuganmas xazinadir. O'simliklar dunyosi, hayvonot olami yosh qalbning to'g'ri o'sib shakllanishida, tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sir-asrorini o'rganib voyaga etishida katta manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiatdagi narsalar ikki qismdan: jonsiz va jonli tabiatdan iboratdir. Jonsiz tabiatga er, quyosh, yulduzlar, suv, havo, toshlar, tuproq, jonli tabiatga esa o'simliklar, hayvonlar, mikroorganizmlar, odamlar kiradi. Jonsiz tabiat deyilishiga sabab ular oziqlanmaydi, o'smaydi, ko'paymaydi, rivojlanmaydi. Masalan, toshni olsak, unga suv ham, havo ham kerak emas.

Jonli tabiatga kiruvchilar esa oziqlanadilar, nafas oladilar, o'sadilar va ko'payadilar. Jonli tabiat vakillari o'simlik, havo, suv, yoruhlik, issiqlik va ozuqa bo'lmasa yashay olmaydi.

Jonli tabiatdagi barcha mavjudotlardan eng qudratlisi insondir. Inson fikrlaydi, mehnat qiladi, turli kashfiyotlar ixtiro qiladi. Tabiat insonni ma'naviy boyitishning bitmas-tuganmas manbaidir.

Tabiat bilan inson o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlashda ekologik ta'lim-tarbiyaning roli nihoyatda katta. Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan uzluksiz ekologik ta'lim va tarbiya insonning tabiatiga, qolaversa, o'ziga nisbatan Yangi munosabatlarning shakllanishini tag'ozo etadi. Bu o'z navbatida barkamol insonning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Tabiatga nisbatan muhabbat uyg'otish ona Vatanga, uning tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalari, xalqimizning an'alariga hurmat ruhida tarbiyalashga, yuksak ma'naviyatli shaxsning shakllanishiga olib keladi.

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi qadimdan ekologik madaniyat merosiga ega. Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto» xalqimizning bebaho mulki sanaladi. Bu nodir kitob bundan o'ttiz asr muqaddam shu zaminda yashagan ajdodlarimizning biz avlodarga qoldirgan ma'naviy tarixiy merosidir. «Avesto», ayni zamonda, bu qadim o'lkada bu Yuq davlat, Yuqsak ma'naviyat va madaniyat bo'lganligidan guvoqlik beruvchi tarixiy qujjatdir.

«Avesto» tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni ma'naviy, ruhiy va axloqiy mezonlar orqali uyqunlashtiruvchi, kishini qurshab olgan olamni o'rganishga chorlaguvchi falsafadir.

«Avesto»da noyob dorivor giyoqlar haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, uy-joy, atrof-muqit, tabiatni muqofaza qilish, uni asrash to'g'risida tavsiyalar berilgan.

«Avesto»da er, suv, xona, inson tana azolari, kiyim-kechaklarni toza tutish haqida yozilgan. Atrof-muqit, ko'chalarni, butazorlaru o'tloqlarni, erni iflos qilgan kishilar jazolanganlar. Shuningdek, muqit tozaligini saqlash va kasalliklarni oldini olish maqsadida axlatlarni, ifloslangan joylarni tosh, tuproq, qum bilan ko'mib tashlash buyurilgan.

Asarda kasallik tarqatuvchi qasharotlarni yo'qotish, shuningdek, uy hayvonlarini to'g'ri parvarish qilish yo'llari ham ko'rsatilgan.

"Eng mo''tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto" ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti – dedi Prezidentimiz Islom Karimov tarixchi olimlar bilan uchrashuvda. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi".

"Avesto" da dunyoning yaratilishi, insonning xalq bo'lib kamol topishi, ezgulik uchun yovuz kuchlar bilan kurashi, erkinlik, ijodkorlik va bunyodkorlik yo'lidagi orzulari o'z ifodasini topgan.

"Avesto" faqat odamningina emas, balki bir hovuch tuproq, bir qultum suv, bir nafaslik havoning ham muqaddas ekanligi haqidagi kitob. "Avesto" erning, daryolaru bog'lar, tog'laru buloqlar, ko'lu sahrolar, otu tuyalar uyuri, molu itlar, o'simligu giyohlarning bunyod etish tarixiga doir asar¹².

Ajdodlarimiz ekologik ta'lim-tarbiya borasida ham boy meros qoldirgan. Bunga "Avesto"da ifodalangan ekologik yo'nalishdagi qarashlar va o'gitlar, zardushtiylik bilan bog'liq an'analar, urf-odatlar, bayramlar, suvga, erga sajda qilish, olovning poklovchi kuchiga e'tiqod, ajdodlar ruhiga topinish misol bo'la oladi.

Zardushtiylikning yaratuvchilari turli xalqlarning tabiatga va tabiat hodisalariga topinishidan, diniy bayramlar va urf-odatlaridan ustalik bilan foydalanganlar. Uning negizidagi asosiy narsa yorqin dualizm: dunyoning ibtidosidagi nur va zulmat, ezgulik va yovuzlik bo'lib, ular yaxshilik xudosi Ahura Mazda va yovuzlik xudosi Anhra Manu timsolida namoyon bo'ladi. Ularning birinchisi ezgu hodisalar: er, suv, havo, olovning ijodkori bo'lib, hayot, poklik, salomatlik, aql, ezgulik timsoli hisoblansa; ikkinchisi ifloslik, nopoklik, kasalliklar, o'lim yaratuvchisi shu bilan birga yolg'on, yovuzlik, axloqiy tubanlik timsolidir.

Qadimgi zardushtiyning o'ziga xos o'simlik va hayvonot olami, hayot tarzi bilan aloqador tarixiy sharoit havo, suv, tuproq va olovning ilohiylashtirilishiga olib keldi.

"Avesto" da hayvonlarga ozor bermaslik, ularni asrash chora-tadbirlari to'g'risida, turli xil suvlar va ularning foydasi haqida yozilgan. "Avesto" da maxsus bo'lim bo'lib, uning nomi "Suvlar qasidasi" dir. Unda Markaziy Osiyoning yirik daryolaridan biri – Amudaryo haqida so'z yuritiladi.

Suvni toza tutish uchun qo'yilgan talablar tuproqqa ham qo'yilgan. Ona zamin tabiatning ajralmas bo'lagi, shu sababli ajdodlarimizning erga mehri o'zgacha bo'lgan. Ona zaminni ehtiyot qilishda sir-asror mo'l-ko'l, karomat kattadir, chunki er barcha boylikning asosi, butun tiriklikning manbaidir¹³. Zardushtiylik e'tiqodicha, er har xil iflos narsalar, ayniqsa, inson va hayvonlar jasadining ko'milishidan paydo bo'ladigan narsalardan poklanishga ehtiyoj sezadi. E'tiqodga ko'ra, o'limning o'zi ham yovuz kuchlarning ishi hisoblangan. Bu yovuz

¹² Махмудов Т. Авесто ҳақида. – Т.: Шарк, 2002. – 63 б

¹³ Собиров Ў. Экологик маданият шаклланиш тарихидан. // Экология хабарномаси. – Т.: № 3. 2005. - 17-19 б.

kuchlar o'limdan so'ng ham jasad atrofini tark etmaydi. Shunga ko'ra vafot etganlarning jasdlari tog' qoyalari, sahrolar, maxsus sokinlik minoralarida qoldirilgan va ularning suyaklarigina qolmaguncha qo'l tekkizilmagan. So'ng suyaklar yig'ilib maxsus idish – "assuar"larga solingan va maxsus joylarga ko'milgan. E'tiqod qiluvchilar uchun o'lik tananing muqaddas er, suv yoki o'simliklarga tegib turmasligi favqulodda muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Zardushtiylik ta'limotida atrof muhitga nisbatan madaniyatning teranligi va kuchliligi insonni hayratga soladi. Zero, uning dolzarbligi hozir ham o'z kuchini saqlab qolmoqda. Bu o'rinda erni ifloslantirmay va hosildorligicha saqlash, o'simlik va daraxtlarni o'stirish, hayvonlarni parvarishlash kabi masalalar ko'zda tutilgan.

Axlatlarni maxsus usulda tozalash lozim bo'lgan. Toza va quruq axlat masalan, singan idish, suyaklar erga zarar keltirmaydigan narsalar sifatida ko'mib tashlangan. Qolgan barcha narsalar tomida tuynuksimon teshigi bo'lgan kichikroq uychaga to'plangan hamda vaqti-vaqti bilan ishqor ta'sirida yo'q qilib turilgan.

Zardushtiylik aqidalarida insonga ongli jonzot sifatida qarash alohida ahamiyat kasb etgan. U shu sababli ham atrof muhitni saqlash uchungina emas, balki o'zining jismoniy sog'ligi, axloqiy-ma'naviy holatini kuzatish, qarindosh-urug'lari haqida g'amxo'rlik ko'rsatishga ham mas'ul qilingandir. Shuning uchun "Avesto" da tabiatni – ya'ni suv, tuproq, olov, havo, quyoshni e'zozlash va insonning yaratuvchanlik mehnatini ulug'lash birlamchi ahamiyat kasb etgan¹⁴.

O'zbek xalqining yil fasllari almashuvi, hosilni yig'ib-terib olish bilan bog'liq umumxalq bayramlari ham maxsus ekologik mazmun bilan boyitilgan. Ular orasida eng ommaviy bayram "Navro'z"dir. U zardushtiyning astrologik taqvimlarida alohida ahamiyat kasb etgan.

"Navro'z" o'zbek xalqining tabiat, er va uning in'omlariga bo'lgan muhabbatining o'ziga xos jamuljamidir. U O'zbekistonda bahor va mehnat bayrami hisoblanadi. Shunga ko'ra o'zida nihoyatda katta tarbiyaviy imkoniyatni mujassamlashtiradi hamda insonlarda mehnatsevarlik, insonparvarlik, o'zaro hurmat, muhabbat, ezgulik, adolat, do'stlik va boshqa ijobiy fazilatlarni mustahkamlashga imkon yaratadi.

"Navro'z" bayrami bahorning boshlanishida o'tadi. Bu paytda dehqonlar erga dastlabki urug'ni qadashadi, mevali va manzarali daraxt ko'chatlarini o'tqazishadi, erni "bezash"ga harakat qilishadi, toki u kishilarga ezguliklar keltirsin, ularning qalbiga umid va ishonch tuyg'ularini singdirlsin, yaqin qarindoshlar hamda do'st-yorlar bilan munosabatda o'zlarini erkin va baxtli his etishsin.

Qadimgi an'analarga ko'ra bu paytda kishi quyidagi shartlarni bajarmog'i kerak: ko'cha va hovlilarni tartibga keltirish, tozalashda ishtirok etishi, daraxtlarni oqlash, ko'chat (kamida uchta) hamda gullar o'tqazish, xushchaqchaq va shoduman yurishi, bir-birlariga yaxshi niyatlar tilash, urushgan kishilar bilan yarashish, halol va munosib hayot kechirishga intilish. Shunga ko'ra, ekologik

¹⁴ Собиров Ў. Экологик маданият шаклланиш тарихидан. // Экология хабарномаси. – Т.: № 3. 2005. - 17-19 б.

madaniyat tamoyillari, me'yorlari antropogen omillar xarakteriga ega bo'lib faqat insonning bevosita tabiat bilan bo'lgan munosabatlaridagi harakatlarigagina tatbiq etilgan va baholangan. Barcha insonlar ana shu o'lchov me'yoriga amal qilganlar. Shu sababdan ham suvga tuflama, suvga suprindi tashlama, suv oqqan ariqni iflos qilma, havoni ifloslama kabi fikrlar ular uchun dasturi amal bo'lgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki ajdodlarimiz asrlar davomida to'plagan xalq an'analari, urf-odatlar va marosimlarida er, suv, havo, atrofdagi o'simlik hamda hayvonot dunyosiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga rioya qilganlar. Ular to'plagan ekologik tajribasining bir avloddan ikkinchi avlodga, bir xalqdan boshqa xalqqa vorisiylikini ta'minlash muhimdir.

Tabiat, jamiyat va hayotni inson uchun yaratilgan moddiy-ma'naviy ne'mat sifatida talqin etish, uni asrab-avaylashga da'vat etish qadimgi ma'naviy merosimizning buyuk gumanistik mazmunini tashkil etadi. "Avesto" - buning yorqin namunasidir .

Islom ta'limotida ekologiya muammosiga alohida e'tibor berilgan. Qur'oni karim va Hadisi sharifda tabiatni muhofaza qilish, boyitish, pokiza saqlashga oid pand-nasihatlar o'z aksini topgan.

Qur'oni karim kitobi insonlarni tabiat bilan uyg'unlikka da'vat etadi. Jumladan, "Furkon surasi" ning 2-oyatida: "Alloh hamma narsani yaratdi va o'lchovini mukammal qildi", deyiladi. Ya'ni dunyodagi har bir narsa – suv ham, tuproq ham, havo ham, hayvonot olami ham, nabobat olami ham Alloh taolo tomonidan muayyan o'lchov bilan bir-biriga o'zaro bog'liq qilib yaratilgan. Agar bu muvozanatlik buziladigan bo'lsa, tabiat uchun, shu jumladan, inson uchun ham jiddiy muammolar kelib chiqishi ehtimoli nihoyatda katta.

Alloh taolo ilohiy kitoblarda insonni ulug'lab, unga tabiatni asrab-avaylash, o'z ne'matlaridan bahramand bo'lish, ularni nobud qilmay, ezgu maqsadlarga ishlatishni amr etgan. "A'rof surasi" ning 56-oyatida Parvardigor shunday deb amr qiladi: "Obod qilib qo'yilgan Er yuzida buzg'unchilik ishlarini qilmang"¹⁵ .

Shuningdek, "Al-Isro" surasi tunggi sayr degan ma'noni bildiradi. Bunda borliqdagi barcha jonli-jonsiz mavjudot o'zaro bog'lanishda ekanliklari to'g'risida aytilgan. "Raxmon" surasida jannatga ta'rif beriladi, "Duoxon" tutun degan ma'noni anglatib, bunda ham do'zax va jannat manzaralari haqida ta'riflanadi. "Shuaro" surasidagi Nuh payg'ambarning kemasida odamlar bilan hayvonlar va parrandalarning saqlab qolinishi hikoyatlari, "Nahl" asalari, "Naml" chumoli deb nomlangan suralarida ham zaif va zahmatkash mahluqlarning ibratli hayot tarzi haqida hikoya qilinadi¹⁶ .

¹⁵ Ал - Бухорий, абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 китоб, 1-к., Ал - жомий - ас - сахих (ишончли тўплам). Арабчадан З.Исмоил тарж. – Т.: Қомуслар бош таҳр. 1991. – 560 б.

¹⁶ Алуддин Мансур Куръони Карим. – Т.: Чўлпон, 1992. – 544 б.

Islom ta'limotining yetuk namoyandalaridan biri, 4-jildli "Al-jomi' as-sahih" hadislarini yozgan Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy ham tabiat va uning ne'matlari haqida, tabiat in'omlarining inson uchun yaratilganligi va ulardan oqilona foydalanish, ko'chat ekish, er haydash va ijaraga berish, o'lik erni jonlantirish, suv, ov va ovga tasliya aytmoq haqida kitob yozganlar. Hadisi sharifda¹⁷ tabiatni muhofaza qilish to'g'risida fikrlar bildirilgan. Jumladan: soyasidan xalq foydalanib turgan daraxtni kesib yuborgan odamni tangri do'zaxga maxkum etadi; dunyo yam-yashil va go'zaldir, kimki undan haqli ravishda halollik bilan olsa, baraka topadi, kimki nafs xohishi bilan boylikka mukkasidan ketsa qiyomat kuni do'zaxdan boshqa narsaga erisha olmaydi; dunyoni buzib, bulg'ab yurgan kishi mening ummatim emas; englar, ichinglar, sadaqa qilinglar, ammo isrofgarchilikka o'tmanglar; tangri pokdir, poklikni yaxshi ko'radi, saxiydir-ki saxiylikni yaxshi ko'radi; hovli saxni va turar joylaringizni toza tutinglar; bu dunyoda jonivorlarga qattiq azob beradigan kishilarni tangri qiyomat kuni qattiq azoblaydi; qo'y barakadir, tuya ahliga izzatdir; ekmoq niyatida qo'lingizda ko'chat turgan paytda bexosdan qiyomat qoyim bo'lib qolishi aniq bo'lganda ham ulgursangiz uni ekib qo'ying kabi hadis namunalari keltirishimiz mumkin.

Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati xalqni atrof muhitga nisbatan ekologik madaniyatining ko'pqirrali bo'lganligini ko'rsatadi. U tarixan taraqqiy etib kelgan insoniyat tajribalari davomiyligining muhim omili bo'lganligidan darak beradi.

Xalq ekologik madaniyati ana shu evolyustion ziddiyatli jarayonda shakllangan. Ajdodlarimiz atrof muhitning rang-barang ko'rinishlarini saqlab qolish uchun tabiat va jamiyatning rivojlanish qonuniyatlariga amal qilganlar.

Ota-bobolarimiz o'tmishda tabiat zaxiralaridan pala-partish foydalanishni taqiqlaganlar, suvdan foydalanishda uni isrof va iflos qilmaslik (ayniqsa, cho'l hududlarida sardobalar bunyod etish), er, o'simlik va hayvonot dunyosiga oqilona munosabat, hunarmandchilikda chiqitsiz ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, dehqonchilik va chorvachilik uchun ajratiladigan erlar mutanosibligiga muntazam e'tibor berish, farzand (o'g'il) tug'ilishi bilan ko'chat o'tqazish, bahor paytida ariq va zovurlarni tozalash, yo'l, ko'priklarni qurish va saqlashda bahorgi hashar usulini qo'llash, oziq-ovqat mahsulotlaridan tejab-tergab foydalanish, mollarni semirtirib so'yish kabi ekologik muammolarga amal qilishganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardayoq o'zlarini tabiatning bir qismi ekanligini anglab, tabiatga hurmat bilan qaraganlar. O'z bolalarini tabiatga nisbatan chuqur hurmat, e'tiqod ruhida tarbiyalaganlar.

O'rta asrlarda O'rta Osiyoda yashab ijod etgan olimlardan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur tabiat fanlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Amir Temur, Alisher Navoiy kabi davlat arboblari esa butun umr

Ал - Бухорий, абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 китоб, 1-к., Ал - жомий - ас - сахих (ишончли тўплам). Арабчадан З.Исмоил тарж. – Т.: Қомуслар бош таҳр. 1991. – 560 б.

davomida obodonchilik va sug'orish ishlari, bog'-rog'lar barpo etish bilan shug'ullanganlar. Ular hali ekologiya fani dunyoga kelmagan davrda tabiat va undagi muvozanat, o'simlik va hayvonot dunyosi, tabiatni e'zozlash haqida qimmatli fikrlar aytganlar .

Ular o'z asarlarida tabiatni asrash va uning boyliglariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, uni saqlash va ko'paytirish zarurligini uqtirganlar va unga o'zlari amal qilganlar. Ular dunyoni ilmiy bilishga, inson ongida tabiat va olamni umumlashtirish jarayonlari, buning natijasida esa tabiatdagi barcha jonzorlar orasida mavjud bo'lgan o'zaro aloqadorlikni ekologik nuqtai nazardan ilmiy asoslab berganlar.

Buyuk alloma Muhammad al-Xorazmiy (782-847) risolalaridan birida bunday deb yozadi: "Biling-ki, daryoning ko'zlari yoshlansa uning boshiga g'am, kulfat tushgan bo'ladi. Odamlar, daryodan mehringizni darig' tutmanglar". Dunyoning yoshli ko'zlari deganda Muhammad al-Xorazmiy nimalarni ko'zda tutdi ekan? Ehtimol, u daryo suvining ortiqcha isrof bo'lishini nazarda tutgandir? Vaholanki, buyuk bobomiz eng avvalo daryo bilan odamlarning bir-birini tushunishlari va til topishlari, o'zaro mehr-muhabbat qo'yishlarini nazarda tutgan. Xorazmiy 847 yili "Ma'mun akademiyasi" olimlari bilan olib borgan tadqiqot ishlarini umumlashtirib "Kitab surat al-arz" ("Er tasviri") kitobini yozgan. Xorazmiy ushbu kitobda 637 ta noyob tabiiy joylar, 209 ta tog'ning geografik tafsilotini bergan. Shuningdek, asar butun dunyo qit'alar, okeanlar, qutblar, ekvator, sahrolar, ko'llar, o'rmonlar, turli mamlakatlar, o'lkalar, u erdagi hayvonot, o'simlik dunyosi va boshqa tabiiy resurslar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Xorazmiyning mazkur asariga kiritilgan xaritalarda er yuzi etti iqlimga bo'lib chizilgan, shundan faqat to'rttasigina bizgacha etib kelgan¹⁸ .

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-falsafiy fikrining eng yirik va mashhur vakillaridan biri Abu Nasr Forobiyning (870-950) ilmiy-falsafiy merosi nihoyatda boy. Uning asarlari hozirgacha aniqlanmagan. Nemis olimi M.K.Brokkelmanning ro'yxatida Forobiyning turli sohalarga oid 180 ta asarining nomi keltiriladi. Bu asarlar bir necha guruhlariga bo'linadi. Shulardan 11 - guruhga Forobiyning tabiatshunoslik ilmi, amaliy faoliyat va hunarmandchilik masalalariga oid asarlari kiradi. Forobiy tabiatshunoslikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan bo'lib, "Kitob al-hajm va al-miqdor", "Kitob al-mabodi al-insonia" ("Insoniyatning boshlanishi haqida kitob"), "Qalam fia'zo al-hayvon" ("Hayvon a'zolari to'g'risida kitob") nomli asarlari bunga dalil bo'la oladi. Ularda inson va hayvonlar organlari, ularning funkstiyasi, bir-biriga o'xshash xossalari va tafovuti kabi masalalar yoritiladi. "Imlarning kelib chiqishi va tasnifi" asarida tabiiy fanlarni izohlashda u minerologiya, hayvonot va o'simliklar olami, ularning turlari va xarakterli xususiyatlariga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, tabiatshunoslik ikki xil tanlash – bu inson qo'li va faoliyati bilan yuzaga keltirilgan tanlash va tabiatning

¹⁸ Ал - Бухорий, абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил. Ҳадис. 4 китоб, 1-к., Ал - жомий - ас - саҳих (ишончли тўплам). Арабчадан З.Исмоил тарж. – Т.: Қомуслар бош таҳр. 1991. – 560 б.

o'zi yaratgan tanlash ajratiladi. Shu sababli, u sun'iy turlar vujudga kelishini birinchilardan bo'lib ta'riflagan va biologiya hamda fiziologiya (birlimchi va ikkilamchi signal sistemalari to'g'risida) fanlari rivojiga munosib hissa qo'shgan.

Abu Rayhon Beruniyning (973-1048) fikricha inson tabiat qoidalariga rioya qilgan holda borliqni ilmiy ravishda to'g'ri o'rgana oladi. Beruniyning ilmiy qarashlari asosan "Saydana", "Mineralogiya", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya" kabi asarlarida uchratiladi. Beruniyning "Hindiston", "Qadimgi avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya" kabi asarlarida turli xalqlarning ekologik qarashlari, an'ana, urf-odatlar, ularning tabiat bilan aloqador bayramlari tavsif va tahlil qilingan.

Beruniy "Saydana" degan asarida 1116 tur dori-darmonlarni tavsiflagan. Ularning 750 tasi turli o'simliklardan, 101 tasi hayvonlardan, 255 tasi esa minerallardan olinadi. Har bir o'simlik, hayvon va minerallarning xossalari, tarqalishi va boshqa xususiyatlari keltirilgan.

"Hindiston" degan asarida o'simlik va hayvonlarning tuzilishi hamda ularning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi haqida ham qiziqarli ma'lumotlar keltiriladi. "Hindiston" asarida jirafa, delfin, karkidon, kiyik, fil va boshqa hayvonlar, qushlarning tarqalishi, tashqi ko'rinishi, xususiyatlariga batafsil to'xtab o'tgan. Beruniy o'zining ilmiy-nazariy Bitiruv malakaviy ishlari, tajribalari asosida barcha tabiat hodisalari ma'lum qonuniyat asosida yuz beradi va ularni hech qanday tashqi kuch o'zgartira olmaydi, degan xulosaga keladi. Beruniyning to'plagan ma'lumotlarini xulosalaganda shunga iqror bo'lamizki, barcha millatlarda insonlarning tabiatga nisbatan uyg'unligi namoyon bo'ladi.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) jahon madaniyatiga buyuk hissa qo'shgan olimlardan biridir. Yirik ensiklopedist olim sifatida u o'z davri ilmining deyarli barcha sohalari bilan shug'ullangan. Turli yozma manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi eslatiladi. Bizgacha esa uning 240 ta asari etib kelgan. Ibn Sino asarlari orasida "Tib qonunlari" shoh asari tibbiyot ilmining qomusi bo'lib, o'rta asr tibbiyot ilmi tarqalishining oliy cho'qqisi hisoblanadi. Ushbu asarda insonni o'rab turgan atrof muhit, tabiatdagi o'simliklar dunyosi kasallarni davolash uchun dori-darmon vazifasini o'tashi ta'kidlangan. Bu qarashlar hozirgi vaqtda ham tibbiyotda keng qo'llanilmoqda. O'tmishda alloma kasallarni davolashda havo, suv, tuproq, iqlim, oziq-ovqat, yashash joyi muhimligini ko'rsatgan. Bularning inson salomatligiga ta'sirining muhimligiga alohida e'tibor berganlar. Bug', tutun va boshqa narsalar bilan ifloslangan havoning inson salomatligiga salbiy ta'siri tahlil qilingan. Suvni tozalashga oid tavsiyalar berilgan. Kasalliklarning paydo bo'lishi va uni davolashda hayotiy sharoit hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslab bergan. "Tib qonunlari"ning maxsus bobi inson salomatligini saqlashga bag'ishlangan. Asarda shu narsa juda ochiq ko'rinadiki, davlatning kuchliligi, insonlar sog'lig'i bilan chambarchas bog'liqdir.

Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va tabiiy-ilmiy qarashlari uning jahonga mashhur asari "Kitob ash-shifo", ya'ni "Davolash kitobi"da bayon etilgan. Bu asarda materiya, fazo, vaqt, shakl, harakat, borliq kabi falsafiy tushunchalar,

shuningdek matematika, kimyo, botaniqa, zoolgiya, geologiya, astronomiya, psixologiya kabi fanlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Ibn Sinoning "Er yuzida chang va tutun bo'lmasa, inson ming yil yashar edi" degan iborasining qanchalik to'g'ri ekanligi bugungi kunda isbotlandi.

Sohibqiron Amir Temur (1336-1405) har doim mamlakatda (qo'lga kiritilgan erlarda ham) birinchi navbatda obodonchilik, erlarni o'zlashtirishga katta e'tibor bergan. Sohibqiron qo'riq va bo'z erlarni o'zlashtirganlarni, koriz qurgan yoki biror bog' ko'kartirganlarni rag'batlantirgan. "Temur tuzuklari" da yangi o'zlashtirilgan erlardan "Birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganni olsinlar, uchinchi yili esa qonun-qoidaga muvofiq xiroj yig'ilsin", deb ta'kidlanadi. Sohibqiron Samarqandda 12 ta bog' yaratadiki, ularning har biri o'ziga xos tabiiy muhitga ega bo'lib, iqlimiga, eriga, nomiga g'oyat katta e'tibor beradi .

Tabiatga bo'lgan mehr-muhabbat, adolat tuyg'usi Alisher Navoiy (1441-1501) siymosida alohida o'rin tutadi. A.Navoiy rahbarligida o'nlab kanallar qazilgan, hovuzlar, quduqlar, sardobalar barpo qilingan. Shuningdek Navoiy qarashlarida suvni isrof qilish – nonni isrof qilishdek gunoh ekanligini, hovuz, quduq, sardoba suvini toza saqlash hamma uchun ham savob, ham farz ekanligini tushuntirilgan. A.Navoiy tabiatga yoki biron-bir jonzotga xiyonat qilishni, do'stga xiyonat qilishini qoralagan. U bunday deb yozadi: "Dehqon agar to'g'rilik bilan don sochsa, haq biriga yuz eshigini ochadi, sochgan donasi ko'karguncha, o'rib xirmon qilib, hosilni ko'targuncha, qurtu qush undan bahramand bo'ladi, dasht yaxshilari u bilan shodlanadi. Chumolilar uyi undan obod, hayvonlar ko'ngli u bilan shod. Kaptarlar undan mast bo'ladi, to'rg'aylar undan sevinchga to'ladi". Navoiy "Xamsa" sidagi 5 dostonida ham tabiatga, hayvonotga alohida to'xtalgan. Asarlardagi qahramonlar o'zining shodu hurram kunida ham, qayg'uli kunlarida ham tabiat qo'yniga yo'l olishadi, bog'da o'z sevinchu yoki xasrat-dardlarini baham ko'rishadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning (1483-1530) asarlari bamisoli tagi yo'q xazinadir. "Boburnoma" uning eng yirik asaridir. Asarda Boburning ko'rgan-kechirganlari, yurgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hayvonoti, o'simliklari tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keraklicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda er, suv, havo turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi. "Boburnoma" asari o'lkamiz tarixi, geografiyasi, tabiati, etnografiyasi, madaniyati to'g'risidagi beqiyos manbadir.

Bugungi kunda o'tmish ajdodlardan qolgan an'ana va urf-odatlar uchun o'zaro bog'langan ikkita ijtimoiy vazifa mavjud:

a) o'zbek xalqiga xos munosabatlarni mo'tadillashtirish;

b) an'ana va urf-odatlarni qayta ishlab, yosh avlod hayotiga singdirish va takomillashtirish.

Tabiat boylıklariga ehtiyotkorona munosabat va undan oqilona foydalanishga oid boy tarixiy merosning qayta tiklanishi va rivojlanishi yo'nalishida faol ish olib

borish yosh avlodning ekologik madaniyati, ma'naviy imkoniyatlarini oshirishning asosi bo'lib, u Bolalarda ona-Er, ona-Vatan bilan faxrlanish tuyg'ularini tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ajdodlarimiz ekologik o'gitlarining unutilishi, tabiat zaxiralariga o'ylamay-netmay isrofgarchilik bilan munosabatda bo'lish O'zbekiston hududida ham yuz bergan. Buning oqibatida ko'plab ekologik muammolar yuzaga keldi. Shuning uchun ekologik tarbiyadagi eng muhim yo'nalish, Respublika hududidagi hozirgi zamon ekologik bo'hronlarni ilmiy asoslash va uni maqsadga muvofiq tarzda ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, Bolalardagi ekologik nuqsonlarni bartaraf etish va ularni ekologik muammolarni hal etishga qodir ekologik madaniyatli insonlar qilib shakllantirish muhim pedagogik muammo bo'lib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbek xalqi tarixi yosh avlodlarni tabiat bilan tanishtirishga doir boy ijodiy merosga ega bo'lib, bu merosni o'rganish, hayotga tatbiq etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish shu kunning eng muhim vazifasidir.

II BOB. MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALARNI TABIAT BILAN TANISH TIRISH TIZIMI

2.2. Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mazmuni va uni tanlash tamoyillari.

Ekologik ta'lim-tarbiya tizimi asoslariga tabiat yaxlitligi hamda atrof muhitning inson tomonidan o'zgartirilishi haqidagi tasavvurlar qo'yilgan. Bunda tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni oliy o'quv yurtlarida hozirgi zamon ommaviy axborot vositalaridagi uzluksiz jarayon sifatida qaraladi. U umumiy vazifalar bilan uyg'unlashadi hamda mutaxassislik tayyorgarligi bilan bog'liq holda tabaqalashtiriladi. Uning umumiy nazariy ko'rsatmalari o'quv rejasining turli qismlarida aks etgan bo'lib, ma'ruza matnlari, elektron darsliklar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmunida o'z ifodasini topadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning jarayoni har tomonlama rivojlangan shaxs ma'naviy qiyofasini kamol topish jarayonining muhim va tarkibiy qismidir. U Bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyat sifatida tabiatga ongli munosabat, tabiat zaxiralarini saqlash va ko'paytirishga oid mas'uliyat tuyg'usi, ekologik muammolarni amaliy hal qilishdagi ko'nikmalarning rivojlantirilishini o'zida qamrab oladi.

Sayyoramizda jumladan, respublika hududida vujudga kelgan ekologik vaziyat ta'lim-tarbiya tizimi oldiga quyidagilarni hal etishni muhim vazifa etib qo'yadi, ular:

- 1) Bolalarning tabiatga ongli munosabatlari, tabiat komponent-larini yaxlitlikda va o'zaro aloqadaligini his etish;
- 2) tabiatning Bolalar ekologik madaniyatini belgilab beradigan vosita sifatida namoyon bo'lishi;
- 3) atrof muhitga munosabatni ma'naviy madaniyatning ajralmas qismi ekanligini anglash;
- 4) tabiat talabani ekologik madaniyatini shakllantirishi uchun asosiy omil ekanligini tushunish;
- 5) atrof muhitga nisbatan bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda Bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonida atrof muhitni muhofaza qilishni ekologik qadriyat sifatida anglab etishlariga ilmiy-amaliy jihatdan sharoit yaratish;
- 6) bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning maqsad va vazifalarini aniq belgilab olish, uning amaliyotga yo'naltirilganligini tushunish;
- 7) ekologik muammoga umummilliy, umuminsoniy, ijtimoiy muammo sifatida yondashish kabilar.

Shular asosida talabani ekologik madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini didaktik jihatdan ta'minlanishiga erishamiz. Buning uchun ekologiyaga oid o'quv materiallarini tanlash, tabiatni muhofaza qilishga oid faoliyat turlari va ular mohiyatini Bolalar ongiga singdirish, insonning

tabiat hodisalarini anglashi, mazkur hodisalarning hayotiyliigi, mukammalliligini tushunish lozimligining ustuvorligini anglashi zarur.

Bizning fikrimizcha Bolalarga o'rgatiladigan ekologik bilim mazmuni o'z ichiga quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- Bolalar ongida olamning ilmiy manzarasini shakllantirish;
- tabiat va jamiyat o'rtasidagi ma'lum bo'lgan ekologik bilimlar ahamiyatini ilmiy-amaliy jihatdan yoritib berish;
- Bolalar tomonidan ekologik qonuniyatlarning o'zlashtirilishiga erishish;
- tabiatda sodir bo'ladigan turli xildagi fojialarni anglash, ularning mohiyatini bilib olish, ekologiyaga oid ta'lim vazifalarini ifodalash, kuzatish va tajribalarni rejalashtirish hamda amalga oshirish, ekologiyaga oid nazariy-amaliy g'oyalarni oydinlashtira olish, ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalana olish malakalarini hosil qilish;
- tabiatga qadriyat sifatida qarash tuyg'usini uyg'otish va madaniyatini shakllantirish, tabiatni muhofaza qilish va uning boyliklaridan unumli foydalanishni takomillashtirish;
- Respublika hududidagi biologik xilma – xillikni bilishga imkon beradigan nazariya va g'oyalarni o'rganishni tashkil etish;
- ekologiya sohasidagi muayyan bilimlar hajmini, tasavvur va tushunchalar doirasini ilmiy-amaliy jihatdan ishlab chiqish;
- atrof muhitni muhofaza qilish, uning zahiralardan unumli foydalanishga o'rgatish;
- Bolalarni atrof muhit bilan muloqot davrida ekologik amaliyotni kengaytirish, ularda atrof muhitga nisbatan faol ta'sir etuvchi ekologik munosabatni tarkib toptirish.

Ekologik ta'lim mazmuni: psixologik, pedagogik, shaxs faoliyatiga yo'naltirilgan omillarga tayanadi:

- tabiatga nisbatan ekologik ongli munosabatda bo'lish zaruriyatini anglab etish;
- o'z faoliyatlarining ekologik oqibatlarini oldindan his eta olish;
- tabiat bag'rida yashash, rivojlanish va milliy boylik ekanligini his qila bilish;
- atrof muhit bilan muloqotlarning turini tanlashga oid xulosalar chiqarishda tabiiy-ilmiy, texnik va gumanitar bilimlarga tayanish;
- tabiat bilan muloqotda bo'lganda milliy tarixiy taraqqiyotga, umuminsoniy qadriyatlarga tayanish zarur.

Shunday qilib, Bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish uchun ular ekologiyaga oid quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim:

- ekologik muammolarning paydo bo'lish sababini ilmiy-amaliy jihat-dan aniqlay olish;
- tasodifan hosil bo'ladigan antropogen omillar holatini hamda uning salbiy oqibatlarini anglash va undan himoyalanih;

- tabiat zaxiralaridan foydalanishga oid amaliy, aniq ma'lumotlarni olish, tahlil qilish va undan xulosa chiqarish;
- ekologiyaga oid oddiy Bitiruv malakaviy ish ishlarini o'tkaza olish, olingan natijalarni tahlil etib, xulosa chiqarish;
- ekologiyaga oid tajribalar olib borish;
- mahalliy, hududiy, umumbashariy ekologik muammolarni ilmiy-amaliy jihatdan o'rganish, tahlil etish va bartaraf qilishda faollik ko'rsata olish.

Ekologiya o'z mazmuniga ko'ra insoniyatning tabiat ob'ektlari bilan bo'ladigan barcha xilma-xil aloqalari mohiyatini aks ettiradi. Shunga ko'ra, endilikda shahar, ishlab chiqarish, texnika, qishloq xo'jaligi, suv havzalari, o'simliklar, hayvonot olami, inson, mahalla ekologiyasi kabi tushunchalar mavjud. Ekologik tushunchalarni ekologiya fani o'z ichiga qamrab oladi.

Tabiat vositasi tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bulib, u uz oldiga bolalarning esh xususiyalarini, bilim jaraenlarini, kobilyatlarining yaxshi bilgan xolda tarbiya berishni vazifa qilib kuyadi. Maktabgacha tarbiya ishida uning kup kirralari bor, bu pedagogika fani konuniyatlarini urganish bilan shugullanadigan juda kenn ijtimoiy xodisa.

Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, eng avvalo pedagogika fanining asoschilarini aytib utilgan fikrlarga asoslanamiz. Garbning ilgor pedagoglaridan Komenskiy bolalarga beriladigan bilim hayotiylikka va kurgazmalilikka asoslanishi kerak degan edi. Bolalarga tabiat orkali beriladigan bilimlar turlicha metodi va usullar bilan olib boriladi va ekskursiya, sayl ta'limiy uynlar orkali mustaxkamlanib chuqurlashtiriladi.

Dasturning tabiat bilan tanishtirish qismiga materiallar quyidagicha printsiplar asosida tanlanadi :

№	Bolalarni tabiat bilan tanishtirish printsiplari
1.	Bolalar yoshiga xoslik printsiipi
2.	Ilmiylik printsiipi
3.	Kurgazmalilik printsiipi
4.	Ulkashunoslik printsiipi
5.	Entsiklopedik printsiipi

Bolalar yoshiga xos jonli va jonsiz tabiat haqida oddiy tushunchalar berish bolalarga beriladigan bilimlar oddiy bulishi bilan birga ilmiy aniq bulishi kerak. Masalan, usimlikni yorug'likka, suvga, issiklikka bulgan extiyoji.

Bolalarga beriladigan bilimlarning barchasi kurgazma asosida berilishi shart. U ulkasi tabiati haqida chuqur bilim berish. Tabiatshunoslik barcha soxalari- (botaniqa, zoologiya, astronomiya) haqida bilim berish.

Yuqorida aytib utilgan printsiplar bir-biri bilan aloqada olib boriladi.

Bolalarni tabiat bilan atnishtirishda ilmiylik printsiPGA amal qilinadi . beriladigan tabiat haqidagi bilimlar ilmiy bulishi bilan birga bolalar tushunadigan bulishi shart.

Masalan, erta baxorda kunlar isiydi. Kunlar isigan sababli daraxtlar kurtak chikara boshlaydi. Osmon kum-kuk tus oldi, biz endi bog'cha er maydonchasiga ekin ekishimiz mumkin.

Mana shunday oddiy misollar orkali bolalar aniq va ilmiy asosda tushunchalarga ega buladi.

Ilmiy printsiP bolalar yoshiga xos bulsagina natija beradi. Bu haqida Ya.A.Komenskitsy shundats degan: Oddiydan murakkablikka. Yakindan-uzoqga, tanishdan- tanish emasga tomon borish kerak. Bu printsiplar dasturdagi tabiat bilan tanishtirish bulimida uz ifodasini topgan. Biz bolalarni tabiat bilan tanishtirishda bevosita uzlariga yakin bulgan, atrofni urab turgan tabiat bilan tanishtirishdan boshlaymiz. Bolalarga eng avvalo bog'chadagi daraxtlar shu tukaydagi daraxtlar haqida bilim beramiz. Demak, biz yakindan – uzoqga tomon degan qoidaga amal qilishimiz zarur.

Biz bolalarga ta`lim berishla ularning oldingi bilimlariga tayanamiz. Shundagina ular yangi bilimni chuqur uzlashtirib oladi. Bolalar beriladigan bilim ilmiy, bolalar yoshiga xos bulsa, ular kurgazmasiz bulsa, bolalar ishni tushunmaydi.

Shunday qilib sezish tajribani bilish va urganish asosida kuyidagi kurgazmalilik printsiPi asoslab beradi. Kurgazmalilik faqat buyum , xodisalarni kurib idrok qilish emas, balki ularni xamma sezish organlarini tortgan xolda idrok qilishdan iborat. Bu didaktikaning oldin qoidasi hisoblanadi. Agar biror bir predmetni bir necha sezish organlari bilan idrok qilish mumkin bulsa, shu narsani idrok qilish uchun bir necha sezish organliini amalga oshirish lozim. Agar urganidlayotgan predmetni kurish imkoniyati bulmasa, ularning tezliklari va modellariga murojaat qilish lozim. Demak, kurgazmalilik bolalarni abstrakt tushunachalarini real anglashga olib keladi.

Entsiklopedik suzi grekcha suz bulib, barcha fanlarni har tomonlama bilim olish, bilimlaor yig'indisi ma`nosida qullaniladi.

Bolalar osmon jismlarini astronomiyada, uzi tug'ilib usgan shahar, qishloq, tog'larning nomlarini geografiyadan, usimliklar nomlari, ularning uziga xos xususiyatlarini botaniqadan bilib boradi.

Tabiatshunoslik bilimlarini oddiydan –murakkablikka tizimli ravishda yakindan, ya`ni uz ulkasi tabiatidan boshlab uzoq, ya`ni boshqa katta tabiatni tanish, urganish asosida amalga oshiriladi.

Uz ulkasi tabiati bilan tanishish bevosita bolani tevarak- atrofdagi, bog`chasidagi yer maydonchasidagi usimliklar, gullat kuchatlar, daryo va kul nomlari, toglar, yulda uchraydigan maysalar nomi, xayvonot olami, ya`ni bola kundalik hayoti davomida duch keladigan jonli va jonsiz tabiat bilan tanishishdan boshlash zarur. Shu tizimi asosida ish tashkil qilinsa, uzga ulkaning tabiati bilan tanishish engil, oson kechadi.

O`zbekiston Rsublikasi uz mustaqilligini kulgan kiritgandan sung uz milliy kadriyatlarini tiklash yulida jamiyat hayotining har bir soxasida sobit kadamlik bilan ish olib boradi. Ta`lim tizimini tubdan islox qilish maksadida «Kadrlar tayyerlash milliy dasturi»yaratildi.

O`zbekiston respublikasining Ta`lim vazirligi tomonidan bolalar bog`chalarining tabiat bilan tanishtirish dasturi, Respublikamizning uziga xos etnik xususiyatlari, geografik tomonidan ob- xavosi, tabiiy xususiyatlari hisobga olingan xolda tuzilgan.

Dasturda amaliyotda yerishilgan muvaffaqiyatlar asosida ta`lim-tarbiya haqida nazariy vazifalar berilgan. Unda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni har yosh bosqichiga xos psixofiziologik xususiyatlari hisobga olingan. Dastur ilk eshdagi ikkinchi guruxdan to maktabga tayyerlov guruxi uchun muljallangan malaka va kunikmalar xajmini uz ichiga oladi .

Dasturda tabiatshunoslik matyeriallar barcha gurux uchun yil fasllariga qarab taksimlangan. Har bir mavsumda jonli va jonsiz tabiatdagi xamda kishilar xizmatidagi eng aniq haraktyerli xodisalar kursatib utilgan. Matyeriallarning bunday joylashishi tabiatda yuz beradigan xususiyatlarni kuzatish, uning taxlil qilish imokniyatini beradi. Tabiat bilan tanishtirish dasturi respublikamizning uziga xos tabiiy xususiyatlari hisobga olgan xolda tuzilgan.

Maktabgacha tarbiya muassasalariga kullaniladigan «Bolalar bog`chasida ta`lim-tarbiya dasturi» davlat xujjati sanaladi. Har bir bog`cha raxbari, metodisti, tarbiyachisi shu xujjat matyeriallarini tulik amalga oshirishlari shart.

Dasturning tabiat bilan tanishtirish bulimi. Xamma bulimlar bilan uzluksiz bulingan. Tabiat haqida tushunchalarni paydo qilish suz YORamitsiz bulishi mumkin emas. Shuning uchun xam ona tilini chuqur urganish undan foydalana olib tabiatni kuzatish va urganish bilan chambarchas boglik. Bola tabiatni kuzatish davomida olgan bilimlarini uzlari tasvriylash faoliyatlarida ifodalaydi. Tabitani kuzatish orkali sanashdi mikdor uzgarishlarini urganib boradi (daraxt, baland, buta, past). Jismoniy mexnat bolalarni jismoniy Qushli, salomat usishlari

uchun YORam beradi. Bundan tashkari tabiatga xos bulgan harakatli uyinlar va bolani jismoniy barkamol bulishiga yordam beradi. Bu misollarning barchasi dasturda uz ifodasini topgan. Dastur, matyerialshunoslik tabiat bilan tanishtirishdagi barcha printsiplarga amal qilingan xolda amalga oshirilgan.

Yuqorida bayon etilgan, bolalar bog'chasida turli yoshdagi bolalar tarbiya topadi. Bolalarning uzlashtirish kobiliyatini hisobga olingan xolda dastur kuyidagicha tuzilgan, ya`ni bolalar bog'cha muassasalarida bulgan davrlarida bir mavzu bilan bir necha marta tanishadi. Lekin har vaqt chuqurrok , kengaytirilgan xolda tanishadi.

Masalan, kichik guruxda suv haqida tushuncha berilgan suv bilan yuviladi, suvni ichadi, suv sovuk, issik buladi, suv okadi kabi urgatiladi. Urta guruxda suv tinik, ayrim predmetlar suvda chukadi, issik kunda suv tex , sovuk kunda sekin kuraydi, katta tayyerlov guruxlarida suvning tabiatda aylanib yurishi, usimlik bilan hayotida uning urni, suvdagi elektr enyergiyasi, olishda foydalanish mumkin kabi tushunchalar oddiydan - murakkablikka qoidasi asosida tushuntirib boriladi. Demak, har bir guruxda tabiatga xos bulgan bilimlar har yili murakkablashib boradi.

Dastur fasliy printsiplari asosida tuzilgan. Matyeriallarningsh bunday joylashtirilishi tabiatda yuz beradigan uzgarishlarni taxlil qilishga YORam beradi. dasturda urta guruxdan boshlab har bir faslda bolalarda jonli va jonsiz tabiatdagi, usimliklar hayotidagi, xayvonot olamdagi uzgarishlar va ular haqida bolalar olishlari lozim bulgan bilimlar berilishi hisobga olingan.

Biror bir faslda usimliklar hayotidagi uzgarishlar, ob-xavosining uzgarishini kuzatish, xayvonot olamidagi uzgarishlarni, kishilarning shu fasldagi mexnatlari bolalarga aniq kurinadi. Shu mavsumdagi barcha tabiat haqidagi, unda yuz beradigan uzgarishlar haqida tulik tushunchalar shakllanadi. Bundan tashkari dasturda tabiat haqida tushunchadlarni shakllantirish kvartallarga bulib berilgan.

Bolalarga beriladigan bilimlarni kvartallarga bulib joylashtirishda va Yuqorida kurib utilgan printsiplarga amal qilinadi.

Har bir guruxda yil oxirida bolalar egallashlari lozim bulgan bilimlar kursatilgan. Dastur matyeriallarini joylashtirishda izchillik, tizimlilikka amal qilingan .

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yilgan davlat talablari shu talablar asosida tuzilgan «Uchinchi mingyillikning bolasi» tayanch dasturi (2000) asosida amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish dasturining «Bolalarni jismoniy rivojlantirish», «Bolalarning nutqi va tafakkurini rivojlantirish», «Ma'naviy-madaniy yetuklik» bo'limlarida o'z aksini topgan.

Dastur bolalarning yoshi, psixologik hamda fiziologik xususiyatlariga mos ravishda aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, ekologik ta'lim-tarbiya berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan. Bu vazifani qal etishda «Ta'lim to'g'risidagi» Nxonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» hamda «Soqlom avlod» davlat dasturi tayanch bo'la oladi. «Uchinchi mingyillikning bolasi» dasturi etti yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasini o'z ichiga olib, ta'lim va tarbiyaning malum qirralarini bog'chada singdirishni rivojlantiradi.

Dasturning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- bolalarda ilk yosh guruhdan o'simlik va hayvonlarga nisbatan qiziqish uyqotish, ularni jonivorlarga mehr bilan munosabatda bo'lishga odatlantirish, suv va undan foydalanish, yomgir va qor, issiq va sovuq havo haqida tasavvurlar hosil qilish;

- 2-3 yosh davrdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda Nuyosh va Oy haqida tasavvur hosil qilish, tirik jonivordan mushuk, kuchuk, jo'ja, akvariumdagi baliqlar, qafasdagi qushlarni kuzatish, ularning nomini aytish, qarakatini ko'rsatishga o'rgatish;

- daraxt, gul, o't-o'lanlarni farqlashga o'rgatish. Diqqatlarini xonada o'stiriladigan gullarning go'zalligiga jalb qilish, ularni suqorib turish zarurligini tushuntirish, nomlari tanish bo'lgan sabzavot va mevalarni farqlashga o'rgatish, o'simliklarni ehtiyot qilishga odatlantirish.

3 yoshdan 4 yoshgachabo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya haqida dastlabki tushunchalarni berish: ayrim meva va sabzavotlar (olma, uzum, o'rik, olcha, gilos, qovun, tarvuz, sabzi, piyoz, pomidor kabi), gullaydigan o'simlik va daraxtlar (lola, atirgul, olma, o'rik kabi) bilan tanishtirish, ularning nomi va rangini to'g'ri aytishga va bir-biridan farqlashga o'rgatish, etiborlarini ularning go'zalligiga, qidiga qaratish;

- uy hayvonlari (kuchuk, mushuk, sigir, qoy, echki, ot) bilan tanishtirish, ularni bir-biridan farqlashga va nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish, rasmlar orqali yovvoyi hayvonlar (bo'ri, quyon, tulki, ayiq) bilan tanishtirish, ularni farqlashga va nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish;

- qushlar (chumchuq, kaptar, musicha) va qasharotlar (chumoli, kapalak kabilar) bilan tanishtirish, ularning nomlarini to'g'ri aytishga o'rgatish;

- bolalarni istiroqat boqiga va hayvonot boqiga (shaqarda), boq, poliz va boshqa ekinzorlarga (qishloqda) sayrga olib chiqish va u YORagi daraxt, gul, ekin va hayvonlar bilan tanishtirish, ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga o'rgatish;

- tabiat hodisalari -qor, yomg'ir, bulut, shamol haqida tasavvur hosil qilish;

- bolalarda jonli tabiatga nisbatan mehribonlik hissini tarbiyalash, daraxt shohiga osilmaslik, tosh otmaslik, gullarni uzib tashlamaslik, maysalarni payhon qilmaslik, jonivorlarga ozor bermaslik zarurligini ularga anglatish;

- ta'limiy o'yinlar vositasida bolalarning nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirish, turli qiziqarli o'yinlar o'rgatish, saqnalashtirilgan kichik yertaklar asosida o'yinlar tashkil etish, o'yin qoidasiga rioya qilish malakasini tarbiyalash.

4 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalarga quyidagi o'yinlar tavsiya etiladi: «Sariq jo'jalarim», «Xolam mehmonga keldi», «Dorboz», «Chir aylanma», «Uloq», «Shifoxona», «Sartaroshxona», «Haydovchi-haydovchi», «Ko'rpa kuydi», «Oynami, yo taroq», «Nimaning pati», «Do'kon-do'kon», «Dengiz va cho'l», «Qovoqari va asalari», «Kitoblar suhbat», «Xilini top», «Gulchambar», «Mevalar va barglar», «Nimaning mazasi», «Onasini top», «Tapur-tupur qayrag'och», «Sochim uchi qo'ngiroq», «Toychoq'im».

- bolalarning ma'naviy kamolotini ta'minlash, bolalarning nafosat va orastaligini shakllantirish, ularda kiyinish, echinish, sochlarini tarab orasta bo'lib yurish, boshlagan ishlarini oxiriga yetkazish kabi qislatlarini tarkib toptirish;

- kiyimlaridagi nuqsonlar (loy sachrashi, choki so'qilishi, tugmasining tushib qolishi)ni o'z vaqtida sezish, uni kattalar yordamida bartaraf qilishga odatlantirish;

- shaxsiy gigiena (qo'lni sovun bilan yuvish, tirnoqlarni olish, iflos narsalarga qo'l tekkizmaslik kabi) qoidalariga rioya qilishga o'rgatish;

- uyqudan keyin, ovqatlanishdan oldin, uy yumushlarini bajargandan so'ng suvni isrof qilmasdan yuvinishga o'rgatish, qo'l, oyoq va badan uchun foydalaniladigan sochiqlarni farqlashga odatlantirish;

- yertalab yuvinmasdan kattalarga salom berish qurmatsizlik ekanligini anglatish;

- kiyimlarini tez va to'g'ri kiyib-echishga odatlantirish, tengdoshlari kiyimidagi kamchilik va tartibsizliklardan oqista ogoqlantirishga o'rgatish, ko'chada qog'oz va boshqa ortiqcha narsalarni yerga tashlamaslik, ularni belgilangan joyga tashlashga o'rgatish, atrofidagi kishilarga, o'rtoqlariga nisbatan xushmuomalalikni shakllantirish, ko'chada, jamoat joylarida, meqmonda tartib-intizomli bo'lishga odatlantirish, xonaga kirganda oyoq-kiyimini echish va artib, joyiga tartibli qo'yishga o'rgatish;

- bolalarga tevarak-olam va tabiat hodisalari haqida ma'lumot berish. Yer, osmon, quyosh, oy, yulduzlar, havo, suv, bulut, yoqingarchilik, tuman, shamol, chaqmoq, momaqaldiroq kabi tabiat hodisalari haqida tasavvur 7osil qilish;

- jonli tabiat-o'simlik va hayvonot dunyosi bilan yaqindan tanishtirish, manzalari daraxtlar (tol, tyerak, chinor, tut, qayraqoch, archa), mevali daraxtlar (olma, olcha, o'rik, shaftoli va boshqalar), dala o'simliklari (paxta, piyoz, lavlagi, kungaboqar, buqdoy va boshqalar), buta o'simliklari (namatak, malina, maymunjon va boshqalar) nomlari bilan tanishtirish hamda ularni o'zaro farqlashga o'rgatish;

- bolalarda tabiat go'zalliklaridan zavq olish tuyqusini tarbiyalash, o'simliklarga zarar yetkazmaslik (daraxt shoxlarini sindirmaslik, o't-o'lanlarni bosmaslik, atrof-muqitni iflos qilmaslik kabilarni)ni ularning ongiga singdirish;

- uy hayvonlari bilan yaqindan tanishtirish, ularni parvarish qilishga o'rgatish, yovvoyi hayvonlar bilan tanishtirish (hayvonot boqiga sayr qilish, rasmlar, multfilmlar va boshqa teleko'rsatuvlarni tomosha qilish yordamida), hayvonlarning (maymun, yolbars, Shyer, bo'ri, tulki, ayiq, fil, olmaxon, kiyik, buqu kabilarning) nomlarini aytishga o'rgatish;

- bolalarning qushlar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, qushlarning yashash tarzi- o'troq qushlar, ayrim qushlar (qaldirgoch, laylak, turna va boshqalar)ning baqorda uchib kelishi, kuzda issiq o'lkalarga uchib ketishi, qarg'aning kuzda uchib kelishi va baqorda uchib ketishi haqida ma'lumot berishi;

- bolalarga tabiat va uni asrash zarurati haqida ma'lumot berish, meva va sabzavotlar (olma, uzum, qovun, tarvuz, nok, shaftoli, o'rik, gilos, qulupnay, sabzi, karam, pomidor, piyoz, kartoshka va boshqalar) nomini, shaklini, rangini va tamini aytib berishga o'rgatish, ulardan biri qaYORa (daraxtda, polizda kabi) o'sishi haqida tasavvur hosil qilish;

- gullar bilan tanishtirishda davom etish, ularning nomlarini to'g'ri aytishga, rangi va o'ziga xos belgilarini ajrata olishga o'rgatish, xona gullari haqida madumot berish, ulardan ayrimlarining nomini aytishga o'rgatish, ularni parvarish qilishga o'rgatish;

- uy hayvonlari (mushuk, kuchuk, sigir, qo'y, echki, ot va boshqalar) va ularning bolalari nomlarini aytishga o'rgatish, qar qaysi uy hayvoni noma bilan oziqlanishi haqida tasavvur hosil qilish, ularning o'ziga xos xususiyatlari (yurishi, ovoz chiqarishi)ni o'rgatish;

- qushlar (chumchuq, musicha, kaptar, to'ti, bulbul, boyoqli, qaldirgoch, qarg'a va boshqalar) ning nomi, katta-kichikligi, rangi, qanday ovoz chiqarishi, oziqlanishi bilan tanishtirish;

- baliq, qurbaqa, ilon, toshbaqa, tipratikan, tovuq, o'rdak, g'oz kabi jonivorlar qayoti bilan tanishtirish;

- yil fasllari, ularning nomi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish, o'simliklarning tarkibiy tuzilishi (ildizi, tanasi, bargi) haqida tasavvur hosil qilish, o'simliklarning fasllarga ko'ra o'zgarishi haqida ma'lumot berish;

- daraxt va butalar kurtaklarining bo'rtishi, barg yozishi va gullashi, maysalarning o'sib chiqishi haqida tasavvur hosil qilish;

- o'simliklarni parvarish qilishda va hosilini yig'ishda ishtiroq etishga o'rgatish;

- qovlida (chinnigul, atirgul, moychechak, nastarin, gulxayri, rayhon, namozshomgul) va xonada (sabur-aloe, gumanjir-kaktus va boshqalar) o'sadigan gullar va ularni o'zaro farqlashga o'rgatish;

- uyda parvarish qilinadigan qushlar (to'ti, bedana, kanareyka, sava, tovus kabilar) bilan tanishtirish, ularni parvarish qilishga o'rgatish;

- uyda boqiladigan parrandalar (tovuq, o'rdak, g'oz, kurka) haqida kengroq ma'lumot berish, ularni parvarish qilishga o'rgatish;

- baliq, qurbaqa, ilon, chayon, ninachi, chumoli, qo'ngiz, qurt, chigirtka, kapalak, sichqon, kalamush kabi jonivorlar haqida ma'lumot berish, ularga nisbatan foyda yoki zarar keltirishiga qarab to'g'ri munosabatni shakllantirish, hayvonlarga hamxorlik ko'rsatish va ulardan o'zini muqofaza qilishga o'rgatish;

- bolalarga inson qayoti uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-ekologik va tabiiy ehtiyojlar haqida ma'lumot berish, bolalarda dastlabki iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishga etibor berish, bozor iqtisodi, pul, tovar, sotish, sotib olish,

tejamkorlik, isrofgarchilik, uvol, sifat, narx, biznes, biznesmen, bartyer singari tushunchalar haqida dastlabki ma'lumotlarni berish. Bolalarni savdolashib harid qilishga o'rgatish;

- bolalarga suv, havo, oziq-ovqat, kiyim-kechak, yorug'lik issiqlikning inson hayotidagi ahamiyatini, bu manbalarni toza saqlash zarurligini, tabiatning tozaligi faqat tabiat uchungina emas, balki odamlarning o'zlari uchun ham qoyat zarur ekanligini tushuntirish, maysa, o't-o'lan, daraxtlar, qush va turli jonivorlarga ozor yetkazish, ularga zarar yetkazish mumkin emasligi borasida tushuncha uyqotish, «savob» va «gunoq» tushunchalarini ekologiya sohasida tadbiiq etishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlri bo'lish, ekologik ta'lim-tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson qayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani pedagogikaning bir qismidir, chunki tabiat bilan tanishtirish orqali barcha tarbiya turlari amalga oshiriladi. Tabiat bilan bolalarning yosh xususiyatlari, fiziologik tuzilishlarini qisobga olgan qolda tanishtiriladi. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, harakter qislatlari, istedodlari qisobga olinadi.

Bola azolarining tuzilishi-olii nyerv sistemasi, ichki azolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo'ladigan o'zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan ko'rinib turibdiki, bu kurs bolalar fiziologiyasi fani bilan ham bevosita bog'langan.

Biologiya fani tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosini tashkil etadi. Chunki biz bolalarni jonli va jonsiz tabiat, tabiat hodisalari, yilning turli fasllari bilan tanishtiramiz.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani falsafa, biologiya, pedagogika, psixologiya, fiziologiya va barcha metodikalar bilan bog'liq qolda bir-birini to'ldirib, mustaqkamlaydi.

Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish hamda boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddii ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosii vazifalaridan qisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqii nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tucshunchalar hosil bo'ladi.

Bolalarda mehnatni sevis, o'zgalar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevis, tabiat

go'zalliklarini ko'ra olish kabi qislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar qal qilinadi.

Maktabyugacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish. Ularni barkamol qilib o'stirish tuqilgan kunidan boshlab amalga oshiriladi.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda olip borilayotgan ta'lim sohasidagi isloqatlarning bosh maqsadi aynan manna shunga yaratilgan. Yani o'sib kelayotgan yosh avlod, mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Mana shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan qolda, bolalar bog'chalarida farzandlarimizga beriladigan har qanday bilim, ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan gururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. Shunday ekan tabiat bilan tanishtirish metodikasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi lozim;

- bolalarni o'z o'lkasini sevishga o'rgatish,
- tabiat bilan tanishtirish orqali bolalarda ilmiy dunyoharashni rivojlantirish,
- bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirish,
- o'zining , tengdoshlari va kattalarning mehnatini qadrlashga o'rgatish,
- tabiat orqali psixik jarayonlarni rivojlantirish (sezgilar, idrok, xotira, qayol, tasavvur, nutq, diqqat),
- bolalarning qissiyotini irodasini rivojlantirish,
- tabiat in'om etgan ne'matlarni avaylab asrashga o'rgatish.

Yuqoridagi vazifalardan kelib chiqqan qolda, bolalarni har tomonlama tarbiyalashda tabiat orqali – aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy, mehnat, ekologik, iqtisodiy tarbiya berish lozim.

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning amalga oshirilish formalaridan biri bo'lib, uni o'z oldiga qo'ygan vazifasi bolalarning yosh xususiyati, psixik rivojlanish qobiliyatini yaxshi bilgan holda tarbiya berishdan iboratdir.

Maktabgacha tarbiya ishida uning ko'p qirralari borki, bu pedagogika fani qonuniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan juda keng ijtimoiy hodisadir.

Haqiqatan ham bolaning shakllanishida boshqa ta'sirotlar kabi tabiatning roli beqiyos kattadir. Bu tarbiyaning muhimligi shundaki, bolalar bevosita tirik mavjudot, o'simlik va hayvonlar bilan munosabatda bo'ladi, ularning xatti-harakati, ovqatlanishi, yurishi, ko'payishi, o'simliklarning gullashi, meva berishi, turli xil mahsulotlar olinishiga bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi.

Masalan, tirik organizmlarning tashqi ta'sirot natijasida o'z belgilarini, qiyofasini o'zgartirishi, ularning tashqi muhitga moslashuvi, organizm va muhitning o'zaro bog'liqligi, jonli va jonsiz tabiatning bir-biri bilan chambarchas bog'langanligi, biostenozlarning o'zaro birligi, tabiatning mutanosibliigi kabi harakterli qonuni-yatlari ilmiy prinstip asosiga qurilgandir. Bu qonuniyatlarining naqadar to'g'ri, bir-biriga bog'liq ekanligini fan allaqachon isbotlab beradi..

Shuning uchun ham tarbiyachilar ana shu qonunyyatlarni, fan yutuqlarini, tabiat haqidagi yangi-yangi ma'lumotlarni bilib, o'rganib yoshlarga tarbiya berishlari zarur.

Yosh avlodga bular haqida ta'lim berilar ekan, tabiatdagi o'zgarishlar va uning rivojlanishi, tabiatni o'zgartirishda kishilarning roli hayotiy misollar bilan tushuntirib berilishi kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirar ekanmiz, tabiatga doir bilimlarning sodda, hayotiy, tushunarli ekanligini ham alohida uqtirish kerak.

Bog'cha bolalari tabiat haqida ma'lumot olar ekan, eng avvalo o'zlari yashaydigan, o'zi tarbiyalanadigan bog'cha uchastkasidagi, uning tevarakatofidagi o'simlik va hayvonlar bilan, tabiat elementlari bilan, u yerning suvi, tuprog'i, iqlimi bilan tanishadilar.

Buning foydali tomoni shundaki, yosh bolalar o'zi yashaydigan, o'zi tarbiyalanadigan YORagi o'simlik va hayvonlarni har kuni ko'radi, ularning nomini bir kunda bir necha marta yoshitadi. Ular bolalar yodida tez qolib, uzoq saqlanadi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirishda ularning turli yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Ayniqsa jonsiz tabiat, o'simlik va hayvonlar, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar, tabiatdagi insonlar mehnati haqidagi bilim va tushunchalar oddiylikdan murakkablikka prinstipga asosida tushuntirilmog'i zarur.

Bog'cha bolalarini tabiat bilan tanishtirish «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» asosida amalga oshiriladi. Dastur bolalarning yoshi, psixik hamda fiziologik xususiyatlariga mos sur'atda axloqiy, aqliy, jismoniy, estetik va mehnat tarbiyasi berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi. Bu vazifani hal etishda umumiy ta'lim va hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari haqidagi harorlariga suyanadi. «Dastur» olti yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasini o'z ichiga olib, u har bir yosh gruppada ikki bo'limdan iborat: «bola hayotini yo'lga qo'yish va tarbiyalash» va «mashg'ulotlarda ta'lim berish». Dasturning har bir bo'limi yosh xususiyatlarini hisobga olib ta'lim va tarbiyaning ma'lum qirralarini bog'chada singdirishni rejalashtirgan.

«Dastur» da ta'lim-tarbiyaning boshqa turlari qatori tabiat bilan tanishtirish metodikasi ham juda keng, atroflicha bayon etilgan.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish ilk yoshdagi bolalar gruppasidan boshlanadn. Bu gruppada tabiatdagi voqealardan, bolalarning tushunishi uchun oson bo'lgan hodisalardan bolalarda o'simliklar, hayvonlar bilan tanishishga qiziqish uyg'otish, tirik jonivorlarga mehr bilan munosabatda bo'lish, eng oddiy estetik hislar uyg'otish uchun foydalanishdan boshlanadi. Bu gruppada dastlab jonsiz tabiat bilan elementar hayvonlar va o'simliklardan faqat 2—3 tasi bilan tanishiladi. Masalan, hayvonlardan baliqcha, qushcha, tovuq-mushuk, kuchuklarni ko'rib hayotda va o'simliklardan olma, pomidor, sabzi kabilar bilan polizda

tanishiladi. Bu gruppada jonli tabiat bilan elementar tanishtiriladi. Bunda ba'zi o'simliklarning rasmiga harab, tashki tuzilishi bilan tanishtiriladi.

Birinchi kichik gruppada tabiat bilan tanishtirishda yoshlarni tirik organizmga mehrlil bo'lish, uni parvarishlashga o'rgatishdan boshlanadi. Bolalar tabiatda o'simlik va hayvonlar hayotida bo'ladigan ayrim o'zgarishlar bilan tanishtiriladi.

Bolalarni qushlar bilan ham tanishtirish mumkin. Bunda bog'cha uchastkasiga uchib keladigan qushlar, ularni uchishi, daraxtga qo'nishi, sayrashi kabilar bilan tanishtiriladi.

Ikkinchi kichik gruppada jonsiz tabiat haqida tushuncha berib, kecha va kunduzning farqini, sababini, ob-havoning asosiy holatini, shamol bo'lishini, yomg'ir, qor yog'ishi, havo bulutli, quyosh kabilar haqida tushuncha beriladi. Bolalarga suv, qor, muz, qum va tuproqlarning rangi, xususiyati haqida tushuncha beriladi.

Jonli tabiat haqida bog'cha uchastkasidagi 2—3 tup daraxt bilan tanishish, 2 ta qushni tashqi ko'rinishi bo'yicha ajrata bilish, kapalak, qo'ng'iz, baqani tanib o'rganish, tabiat burchagida esa 2—3 ta xona o'simligini kuzatish, akvariumni, undagi ba'zi baliqlarni, qafasdagi qushchalarni o'rganish.

O'rta gruppada esa bolalarning o'simlik va hayvon olami to'g'risida, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi tushunchalari boyitib boriladi. Bolalarni tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish, tabiatni sevish, o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilish ruhida tarbiyalash lozim. Gullarni parvarishlash, ularni uzmaslik, daraxtlarni sindirmaslik, qushlarga ozor bermaslik ruhida tarbiyalash kerak.

Jonsiz tabiat bilan tanishishda ob-havoni farqiga borishni (sovuq, issiq, quyoshli, bulutli, shamol esadi, qor, yomg'ir yog'ayotir, do'l tushdi), qor va suvning ba'zi xususiyatlarini (suv tiniq, qor g'ovak bo'lganligidan qorbo'ron, qor uyumi hosil qilish mumkinligini) o'rgatish mumkin.

Jonli, tabiatda, bog'cha uchastkasida, uning tevarak-atrofidagi 4 ta daraxtni, 2—3 ta butani o'rgatish, daraxtni butadan ajratish, guli va bargiga harab 3—4 ta o'tchil o'simlikni tanish, mevali daraxtlardan 1—2 turini, foydali va zaharli zamburug'lardan 2—4 turini bilish kerak. Bolalarni 2—3 tur sabzavot o'simliklarini taniy bilishga, tuproqni tayyorlash, urug' ekish, parvarish qilish, mevasining pishganligini aniqlash va hosilini yig'ishga o'rgatiladi.

Bu gruppada bolalarga tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar (kuz, qish, bahor va yoz) haqida batafeil tushuncha beriladi.

Tabiat burchagida 4—5 ta xona o'simligini taniy bilish, ularning bargiguliga harab nomlarini topish, 4—5 ta hayvon turini ajrata bilish, ularning harakteri, ovqatlanish xususiyatlari o'rganiladi. Bu gruppada o'rganiladigan o'simlik va hayvonlar dunyosi kvartal-kvartal qilib berilgan.

Katta gruppada yaqin tevarak-atrofdagi o'simlik, uy va yovvoyi hayvonlar, tirik organizmlarning hayoti, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilim va ko'nikmalari tekshirilib, yanada kengaytiriladi. Bu gruppadagi bolalar o'z o'lkasining tabiatini sevishga va uni asrashga o'rgatiladi. Yosh avlodni o'simlik,

hayvonot olami va tabiat go'zalligini payqay olish, sevishga o'rgatish ham shu gruppada amalga oshiriladi.

Bog'cha uchastkasida va uning atrofidagi o'simliklarni o'rganish mahalliy sabzavot ekinlarini o'rganishdan boshlanadi. Bolalar bu gruppada b—7 ta o'tchil o'simliklarni guli va bargiga harab ajrata olishlari, g'alladoshlardan 2 tur, zamburug'lardan 3—4 tur, mevali o'simliklardan 2—3 tasini ajrata bilishlari kerak. Hayvonot olamidanda esa 4—5 ta qishlovchi, 3—4 ta ko'chmanchi qushlarni, 2—3 ta kapalak, qo'ng'iz chigirtka, chumoli, pashsha, asalari, qurbaqa, kaltakesaklarni bilishi, ularning yashash hayotini, harakatini (suzishi, sakrashi, daraxtlarga tirmashishi, uchishi, yugurishi kabi xususiyatlarini) o'rganadilar.

Eng muhimi, bu gruppada bolalar tabiatda yil fasllarining hosil bo'lishini (kuz, qish, bahor va yozni), ularning harakterli xususiyatlarini yaxshi bilib oladilar.

Tabiat burchagida esa xonada o'sadigan 5—6 ta o'simlikni bargining rangiga, tashqi tuzilishiga harab farqlashga o'rganadilar. Bu YORa bolalar o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi turli xil sharoitlar (namlik, tuproq unumdorligi, yorug'lik) ga bog'liq ekanligini yaxshi bilib oladilar.

Xuddi shuningdek, bolalar tabiat burchagidagi hayvonlarni tashqi tuzilishi va harakteri (baliq, qush, YORa hayot kechiruvchi hayvonlar)ni o'rganadilar. Bu gruppada ham bolalar jonli va jonsiz tabiat haqida ancha ma'lumot oladilar. Jonli tabiat kvartal-kvartal qilib berilgan. Har kvartalda o'simlik va hayvonot olami, fasllar berilganki, bolalar ular bilan tanishib boradilar.

«Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi» tarbiyachylar uchun asosiy qo'llanma bo'lib, uni har bir tarbiyachi juda yaxshi bilishi kerak. «Dastur» dagi ba'zi tarbiya vositalari mahalliy sharoitga harab o'zgartirilishi, unga ijodiy yondoshish, qo'shimchalar kiritilishi mumkin, lekin dasturning umumiy yo'nalishidan chetga chiqmaslik kerak.

Demak, uzluksiz ta'lim asosida Bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirish jarayoni sust kechmoqda. Bunga bir qancha omillar sabab bo'lmoqda:

-ilmiy omil - adabiyotlarda ekologik madaniyat uyg'unligini Bolalarda shakllantirish muammosi ilmiy-nazariy jihatdan deyarli yoritilmagan;

-ijtimoiy omil - bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda jamiyat, ta'lim muassasalari, mahallalarning harakatlari turli yo'nalishlarga ega, ekologik harashlar, echish harakatlari turlicha, ya'ni mukammal yondashilmagan;

-ilmiy-metodik omil - uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ekologik ta'lim o'quv jarayonining majburiy-tarkibiy qismi sifatida tan olinib, maxsus kurslar dasturi va uning mazmuni atroflicha yaratilmagan va uzluksiz ta'lim tizimidagi o'quv fanlari mazmuni bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish yo'nalishida chuqurroq ko'rib chiqilmagan.

Ekologik bilim, ko'nikma bo'lajak mutaxassislarining o'z hududlaridagi ekologik muammolari bilan ilmiy-amaliy jihatdan bog'lanmagan. Bulardan ko'rinib turibdiki, "Uzluksiz ekologik ta'lim konstepstiyasi" da belgilangan

vazifalar ta'lim-tarbiya sohasida to'liq o'zining amaliy tatbiqini topgani yo'q. O'quv fanlari mazmuniga ekologik bilimlarni singdirish ilmiy asosda amalga oshirilmagan. Oqibatda tarqoq ekologik dalil, ma'lumot va raqamlarning ko'payishi kuzatilmoqda, ekologik materialni taqdim qilishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish sust olib borilmoqda.

Shu bois ilmiy Bitiruv malakaviy ishni amalga oshirishda quyidagi metodlardan foydalandik.

1. **Pedagogik kuzatuv metodi.** Mazkur talaba shaxsini tabiiy hamda maxsus tashkil etilgan sharoitlarda o'rganish, uning ruxiy-irodaviy hamda intellektual (aqliy) xususiyatlarini aniqlash, ularga tayangan holda talabaga muayyan ta'sir ko'rsatish xususida umumiy tasavvurni hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish hikoya, suhbat vaqtida olib borilib, Bolalar oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni echish, tabiat va tabiiy voqeylikni anglash uchun o'rta tashlangan savollarga javob topish maqsadida olib boriladi.

2. **Suhbat metodi.** Mazkur metoddan ta'lim jarayonida samarali hamda o'rinli foydalanish talaba shaxsiga xos bo'lgan xususiyatlardan to'laqonli ravishda xabardor bo'lish imkonini beradi. Biroq suhbat jarayonining samaradorligi o'qituvchi tomonidan muayyan shartlarga amal qilinishiga bog'liqdir. Chunonchi:

-suhbatni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning aniqligi;

-o'qituvchi va talaba o'rtasida tashkil etilayotgan suhbatlarning har birini ma'lum mavzu doirasida bo'lishga erishish;

-suhbat jarayonini yo'naltirib turishga xizmat qiluvchi savollarning qisqa, aniq hamda mantiqiy bo'lishiga e'tiborning haratilganligi;

-suhbat uchun qulay sharoit (joy, vaqt, talabaning ruxiy holati) ning mavjudligi;

-suhbat jarayonida talabaning istagi, jismoniy, fiziologik va psixologik xususiyatlarini inobatga olish, suhbatning uzoq muddatli bo'lishini oldini olish;

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida esa xilma-xil metodlar: ko'rgazmali (kuzatish, rasmlarni ko'rish, diafilm, kinofilm va kompyuterlarni namoyish qilish), amaliy (o'yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar) va og'zaki (tarbiyachining hikoysi, badiiy asarlarni o'qish) suhbatdan foydalaniladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda xilma-xil metod va usullardan foydalanishning sababi bolalarning yoshi, psixologiyasi, tabiat bilan turli darajada tanish bo'lganligidandir. Bundan tashhari tabiat bilan tanishtiriladigan ob'ektlarning mazmuni, hajmi, xususiyati va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish qobiliyatlari ham hisobga olinadi. Shuni unutmaslik kerakki, mavjud metodlar bir-biri bilan uzviy bog'langan, biri-birini to'ldiradi, biri biriga xizmat qiladi.

KO'RGAZMALI METODLAR

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda qo'llaniladigan ko'rgazmali metodlardan biri va asosiysi kuzatishdir. Kuzatish tevarak-atrofdagi predmetlarni va hodisalarni maqsadga muvofiq, planli tasavvur qilish va idrok etishdir. Kuzatish-murakkab bilish faoliyati bo'lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etadi, barharor diqqat talab etiladi. Kuzatilayotgan hodisani tushuntirishda bolaning tajribasi, bilimi, yoshi va malakasi muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Tabiatni bolalar bilan birgalikda kuzatishni tashkil etar ekan, tarbiyachi bir qator vazifalarni hal etadi; bolalarda tabiat haqidagi bilimni shakllantiradi, kuzatishni o'rgatadi, kuzatuvchilikni o'stiradi, estetik va tabiatni sevish ruhida tarbiyalaydi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi bilish vazifalariga ko'ra tarbiyachi kuzatishning xilma-xil turlaridan, xususan qisqa muddatli va uzoq muddatli kuzatishdan foydalanadi.

Qisqa muddatli kuzatish jarayonida bolalar predmetlarning shakli, rangi, katta-kichikligi, tuzilishi, fazoviy joylashuvini, sathining harakterini farqlashni, hayvonlar bilan tanishganda esa harakat harakteri, ular chiharadigan tovushlarni o'rganadilar.

O'simlik va hayvonlarning o'sishi hamda rivojlanishi, tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlar haqidagi bilimlarning jamg'arilishi uchun kuzatishning ancha murakkabroq turi — uzoq muddatli kuzatishlardan foydalaniladi. Bunda bolalarga ob'ektning kuzatilayotgan holatini ilgarigisi bilan qiyoslashga to'g'ri keladi.

Kuzatish predmetning ayrim belgisiga ko'ra uning holatini aniqlash (masalan, tuproqning rangiga ko'ra sug'orishning zarurligini, akvariumdagi baliqlarning xatti-harakatiga ko'ra suvni qisman almashtirish zarurligini) yoki ayrim belgilarga ko'ra yaxlit manzarani tiklash (qordagi izga harab u kimning yoki nimaning izi ekanligini, rangiga harab mevaning pishgan yoki xomligini aniqlash) maqsadida ham tashkil etilishi mumkin. Kuzatishning bu turi bolalarda ba'zi bilimlar, hodisalarni analiz qilish, ayrim ma'lumotlarni qiyoslash, soddaroq xulosalar chiharish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Kuzatuvning bu ikki turidan o'рта va katta yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda foydalaniladi. Bu kuzatishlar davomida bolalarning zehni va kuzatuvchanligi usadi, analiz qilish, qiyoslash, xulosalar chiqarish jarayoni takomillashadi.

Kuzatishlar tarbiyachi tomonidan bolalarni o'simlik va hayvonlar bilan, ob-havo bilan, kattalarning tabiatdagi mehnati bilan tanishtirishda tashkil etiladi. Kuzatishlar mashg'ulot va ekskursiyalarda, sayrlarda, tabiat burchagida va shu kabi joylarda olib boriladi.

Kuzatishga tayyorlash. Tarbiyachining kuzatishni o'tkazishga tayyorlanishi ob'ektni tanlashdan boshlanadi. Kuzatish uchun tanlangan o'simlik yoki hayvon yaxshi holatda bo'lishi lozim.

Agar kuzatish binoda (tabiat burchagida, mashg'ulotda) olib boriladigan bo'lsa, uni tashkil etish ustida o'ylab ko'rish lozim: ob'ekt yaxshi yoritilgan bo'lishi va u shunday joylashtirilishi kerakki, unga yaqinlashish qulay bo'lsin. Bolalar kuzatilaetgan predmetga yaqinroq joylashtiriladi, chunki u hammaga yaxshi ko'rinib turishi, zarur bo'lsa kuzatish ob'ekta bilan harakat qila olishi (ovqat berish, silash, o'ynash) mumkin bo'lsin.

Uchastka yoki yaqinroq joylashgan tabiat qo'ynida o'tkaziladigan kuzatishlar uchun eng qulay joy tanlanadi. Bunda bolalarni shunday joylashtirish kerakki, ularning hammasi uchun kuzatish qulay bo'lsin.

Agarda biror hayvon kuzatilaetgan bo'lsa, shunday sharoit yaratish lozimki, unda hayvon o'zini erkin va tabiiy tutsin. Masalan, quyovni kuzatishda uning bemalol harakat qilishi uchun maxsus joy quriladi, uning atrofidagi stolchalarga bolalar o'tirishadi.

Kuzatishni boshlash. Kuzatishni boshlashda, ayniqsa u birinchi marta o'tkazilayotgan bo'lsa, bolalar oldiga savol yoki topshiriq qo'yiladi. Bolalar kuzatilaetgan ob'ektni mustaqil 1—2 minut tomosha qilishlari, tabiiy paydo bo'lgan qiziqishlarini qondirishlari, kuzatilaetgan narsa haqida birinchi ta'sirotni hosil qilishlari lozim.

Tarbiyachi kuzatishlarni boshharish jarayonida xilma-xil usullardan (bolalarning yoshlarini nazarda tutib): savollar, topshiriqlar berish, predmetni sinab ko'rish (uni ushlab ko'rish, silash va shu kabilar)dan, qiyoslash, o'yin va mehnat harakatlaridan foydalanadi.

Tarbiyachi bolalarga ko'rganlarini tushunib olishlari uchun avval tushuntirib beradi.

Kuzatish ma'lum izchillikda olib borilishi lozim. Tarbiyachi bolalarning hayvonlarni kuzatishlarini boshharar ekan, eng avvalo ularning e'tiborini hayvonning xatti-harakatiga haratadi: Nima qilyapti? Qanday yuryapti? Nima eyapti? Qanday eyapti? Bunda qandaydir harakatiga bog'liq tarzdagi hayvon tashqi qiyofasining belgilari ko'rib chiqiladi: tanasi nima bilan qoplangan? Oyoqlari qanday — uzunmi yoki qisqami? Ko'zlari qanday (shakli, rangi)?

O'simliklarni tomosha qilish uning eng yorqin, ko'zga tashlanadigan belgisini belgilash va ajratib ko'rsytishdan boshlashadi; bu o'simlik gulli yoki uning barglari yorqin rangdor ekanligi, ba'zan poyasi bo'lishi mumkin. Ana

shundan so'ng o'simlik tashqi tuzilishining asosiy xususiyatlari aniqlanadi: kattaligi, shakli, poyasi, barglari, gullari va shu kabilar tartib bilan ko'rib chiqiladi. Bunday izchillik maktabgacha yoshdagi bolalarning diqqati hali etarlicha barharor emasligi, ko'p jihatdan beixtiyoriyligi tufayli zarurdir. Biroq, kuzatish oxirida kuzatish jarayonida paydo bo'lgan tasavvurlarni tartibga solish lozim.

Tarbiyachi kuzatishni tashkil etar ekan, kuzatishning konkret vazifasidan ikkinchisiga, faktlardan aloqalarga, tasavvurlar to'plashdan ularni qiyoslashga, so'ngra xulosalar chiqarishga o'tishda izchillikka rioya qilishi lozim. Shunday qilinganda bolaning tabiat haqidagi tushunchasi usadi.

Har bir kuzatish bolalarni tabiat bilan tanishtirishning kichik, konkret vazifasini hal qiladi. Shuning uchun tarbiyachi kuzatishni o'tkazar ekan, ayni shu vaqtdagi kuzatishning ilgari o'tkazilganlari bilan aloqasini aniqlashi, keyin o'tkaziladigan ishlarni nazarda tutishi lozim.

Tarbiyachi tabiatni uzoq muddatli kuzatishni tashkil etganda oldindan uni bir qator epizodik kuzatishlarga — «bo'laklarga» taqsimlaydi. Bu kuzatishlar, aytaylik, o'simlikning rivojlanishidagi o'zgarishlar aniq ko'rinadigan vaqtda o'tkaziladi. Tarbiyachi bolalarga o'simlikni tomosha qilishni, belgilarini qayd qilishni uning hozirgi holatini, ilgari kuzatilgani bilan qiyoslashni, o'zgarishlardan dalolat beruvchi yangi belgilarini ajratib ko'rsatishni tavsiya etadi. Ba'zan bolalar o'simlikdagi o'zgarishni darhol sezadilar, biroq bu holatda ham tarbiyachi qayd qilingan o'zgarishlar hamma bolalarga tushunarli bo'lishi uchun qiyoslash usulini qo'llaydi.

Tarqatma materialdan foydalanib kuzatish. Bu kuzatishlar o'rta gruppadan boshlab o'tkaziladi. Bunday kuzatishni tashkil etish bir ob'ektni kuzatishdan ko'ra ancha murakkabroq bo'ladi. Bu o'rinda tarbiyachidan o'z diqqat – e'tiborini taqsimlay bilishi, bolalar harakatini uyushtira olishi talab qilinadi. Bolalar esa tarbiyachining hamma ko'rsatmalariga aniq rioya qilishlari, boshqalarni tinglashlari va quloq solishlari, boshqalarning kuzatishlarini o'zlarining kuzatishlari bilan taqqoslashlari hamda qiyoslashlari kerak. Kuzatishlarning bu usuli rivojlantiruvchi ahamiyatga ega.

Tarqatma material sifatida o'simliklar hamda ularning qismlari: bargi, urug'i, shoxchalari, sabzavot va mevalardan foydalanish mumkin. Kuzatish kichik, o'rta, katta va maktabga tayyorlov gruppalarida bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi.

AMALIY METODLAR

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishdagi ikkinchi amaliy metodda o'yin asosiy rol o'ynaydi.

Tabiatning oddiy voqea – hodisasi va narsa (predmet) lari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda xilma – xil o'yinlardan keng foydalaniladi. Bu o'yinlarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradilar, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar.

Bolalarni amaliy metodlar vositasida tabiat bilan tanishtirishda didaktik, harakatli va ijodiy o'yinlardan foydalanish mumkin.

Didaktik o'yinlar. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlarida tabiatdagi predmet va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni aniqlaydilar, mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalar bilimni umumlashtirish hamda sistemaga solishga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, bolalarni mavjud bilimlardan yangi sharoitlarda foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni aktivlashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi,

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda predmetli, stol — bosma va og'zaki didaktik o'yinlardan foydalaniladi.

Predmetli o'yinlar barglar, urug'lar, gullar, mevalar, sabzavotlar bilan o'ynaladigan «Ajoyib xaltacha», «Mevalar va ildiz», «Butoqdagi kimning bolakaylari» va shu kabi o'yinlardir. Bu o'yinlarda bolalar aktiv muloqotda bo'ladigan predmetlarning xususiyati hamda belgilari haqidagi tasavvurlari aniqlanadi va boyitiladi. Predmetli o'yinlarni bolalarning barcha yoshdagi gruppalari bilan ham, shuningdek yoshini hisobga olgan holda, bir oz murakkablashtirib individual holda ham o'tkazish mumkin.

Stol — bosma o'yinlari — «Zoologiya lotosi», «Botaniqa lotosi», «Yilning to'rt fasli», «Kichkintoylar», «Mevalar», «O'simliklar», «Barglarni terib ol», juft rasmlar va shu kabilardir.

Bu o'yinlar bolalarning o'simliklar, hayvonlar, jonsiz tabiat hodisalari haqidagi bilimlarini sistemalashtirish, aytilayotgan so'zga ko'ra predmetning obrazini tiklash ko'nikmasini shakllantirishga yordam beradi. O'yin so'z bilan birgalikda olib boriladi, so'z yo rasm idrok etilishidan oldin keladi yoki o'yin bilan uyg'unlashib ketadi.

Bunday o'yinlar har kungi ishda ozchilikni tashkil etadigan bolalar bilan o'tqaziladi.

Og'zaki o'yinlar («Nima uchadi, yuguradi, sakraydi», Suvda, havoda, YORa» «Kerak — kerak emas» va shu kabilar) hech qanday jihoz talab qilmasligi tufayli juda maqbuldir. Ular u yoki bu predmetning funktsiyalari hamda harakatlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish va sistemalashtirish maqsadida o'ynaladi. Bu o'yinlar diqqatni, zehnlilikni, reaktsiya tezligini, ravon nutqni rivojlantiradi. Uni kichik va o'rta yoshdagi gruppalarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Harakatli o'yinlar. Tabiatshunoslik harakteridagi harakatli o'yinlar hayvonlarning xatti-harakati, ularning hayot tarziga taqlid qilish bilan bog'liq bo'lib, ba'zilarida jonsiz tabiat hodisalari aks ettiriladi. Bular «Ona tovuq va jo'jalar», «Mushuk va sichqonlar» va shu kabi o'yinlardir.

Bolalar bu o'yinlarda harakatlarga, tovushlarga taqlid qilib, bilimlarni chuqurroq egallaydilar; o'yindan zavqlanish bolalardagi tabiatga bo'lgan qiziqishni chuqurlashtiradi.

Ijodiy o'yinlar. Uyinda bolalar mashg'ulot, ekskursiya, kundalik hayot jarayonida olingan taassurotlarni aks ettiradilar, kattalarning tabiatdagi mehnati (parrandachilik fabrikasi, qoramolchilik fermasi, teplista va shu kabildagi ishlar) haqidagi bilimni egallaydilar, bunda ularda mehnatga ijodiy munosabat shakllanadi, ular kattalarning tabiatdagi mehnatining ahamiyatini anglab oladilar.

Tabiatshunoslik mazmunidagi ijodiy o'yinlarni avj oldirish uchun sharoit yaratish zarur: o'yinchoqlar nabori — qishloq xo'jalik mashinalari, hayvonlar va shu kabilar kiritiladi.

Ijodiy o'yin turlaridan biri tabiiy materiallar: qum, qor, loy, mayda toshchalar, so'ta va shu kabilar bilan o'ynaladigan qurilish o'yinlaridir. Bunda bolalar ijod qilgan ekan, materiallarning xususiyatlari va sifatlarini bilib oladilar.

Tarbiyachi bolalarga o'yinda tabiiy materiallarni tanlashda va ulardan foydalanishda yordam beradi ulardan foydalanish usullarini ko'rsatadi.

Tabiatdagi mehnat. Bolalarning tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarga tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, g'amxo'rlik munosabatlari shakllantiriladi. (Tabiatdagi mehnat haqida VIII bobda batafsil yoritilgan).

OG'ZAKI METODLAR

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda og'zaki metodlardan foydalanish ham muhim rol o'ynaydi. Bunda tarbiyachining hikoyasidan, tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishdan, tabiatga doir suhbatdan foydalaniladi.

Og'zaki metodlardan foydalanish bir qator vazifalarni hal etadi. So'z yordamida kuzatishlar va tabiatdagi mehnat jarayonida egallangan, bolalarga ma'lum bo'lgan tabiat hodisalari va hayvonlar hamda o'simliklar hayotiga tegishli faktlar haqidagi bilimlar chuqurlashtiriladi, to'ldiriladi, aniqlanadi. Og'zaki metodlar yo'li bilan bolalar yangi hodisalar va tabiat predmetlari haqidagi bilimlarni egallaydilar. Og'zaki metodni ko'rgazmali metod bilan qo'shish, rasmlardan, diafilm va kinofilmlardan foydalanish zarur. Bunda so'z tabiatda mavjud bo'lgan aloqa va bog'liqliklarni chuqurroq tushunishga, anglashga yordam beradi.

Og'zaki metodlardan foydalanishda tarbiyachi bolalarning nutqni tushunishga bo'lgan qobiliyatlarini so'z orqali berilayotgan mazmunga diqqatni harata olishlarini aniqlaydi, tabiatshunoslikka doir tushunchalarini shakllantiradi. Bu o'rinda ham bolalarga bilimlarni anglashlarida ko'mak beruvchi ko'rgazmalilikdan foydalanish mumkin va maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachining hikoyasi. Hikoyaning qimmatini shu bilan aniqlanadiki, u ma'lum ta'limiy vazifani hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi hamda ma'lum yoshdagi gruppaga bolalariga muljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o'qishga nisbatan afzalligi ana shundadir. Bola kattalarning nutqini yoshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida

uni anglab olishi, og'zaki tasvir asosida etarlicha jonli obrazlarni aktiv tasavvur qilishi, tarbiyachi hikoyasidagi voqea – hodisalarning bir – biriga bog'liqligi hamda munosabatlarni aniqlashi hamda tushunishi, hikoya mazmunidagi yangilikni o'zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab ko'rishi lozim. Bularning hammasi tarbiyachining tabiat haqidagi hikoyasiga bo'lgan talablarni belgilaydi.

Hikoyada ma'lum qilinayotgan bilimlar ishonchlilik, ilmiylik talablariga javob berishi lozim. Tarbiyachi biror narsani bolalarga aytishdan oldin faktlarning to'g'riligini tekshiradi. Hikoya qiziharli, mazmunli, maqsadli bo'lishi lozim. Mazmunsiz hikoyalar, ortiqcha tasvirlashlar bolalarning e'tiborini jalb qilmaydi, esda qolmaydi.

Bolalarga turli maqsadlarda: ularga tanish bo'lgan hodisalar, hayvonlar, o'simliklar haqidagi bilimlarini kengaytirish maqsadida yangi hodisalar, faktlar haqida hikoya qilib berish mumkin. Bunday holda hikoya albatta ko'rgazmali qurollar — fotosuratlar, rasmlar, diafilmlar ko'rsatish bilan qo'shib olib boriladi. Maktabgacha katta yoshdagi bolalar uchun hikoyaning davomiyligi 10—15 minutdan oshmasligi kerak.

Hikoya uchun tarbiyachi xilma-xil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlar, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar, naturalistlarning yozuvlari, hikoyalari va ilmiy materiallardan foydalaniladi.

Suhbat. Didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda suhbat ikki turga: oldindan o'tkaziladigan suhbatlar va yakuniy suhbatlarga bo'linadi. Oldindan o'tkaziladigan suhbatlarni tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyalardan oldin qo'llaydi. Bunday suhbatning maqsadi — bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarning bilimini aniqlashdir.

Yakuniy suhbat bilan olingan faktlarni sistemalashtirish va konkretlashtirishga, mustahkamlash va aniqlashga yo'llanadi. Bu suhbatlar mazmunan turli darajada bo'lishi mumkin: birovlar tomonidan kuzatiladigan ob'ektlar tor doirada kuzatilgandan so'ng (masalan, uchib ketuvchi qushlar va qishlab qoluvchi qushlar va shu kabilar), boshqalari hodisalarning keng doirasini qamrovchi (masalan, mavsumiy o'zgarishlar haqida suhbatlar) — bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar hayoti, hayvonlar, kishilarning mehnati haqidagi bilimlarini sistemalashtirish maqsadida o'tkaziladi.

Suhbatning samaradorligi bolalarning oldindan qanday tayyorgarlik ko'rganliklariga bog'liqdir. Suhbat — bu ular bilan o'tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, o'yinlar, tabiatshunoslik kitoblarini o'qish, hikoyalar orqali tasavvur hosil qilish vazifasi turadi.

Tarbiyachi suhbatning didaktik maqsadini aniq tasavvur qilishi lozim: qanday mazmunini aniqlash va konkretlashtirish kerak, umumlashtirish va sistemalashtirish uchun qanday muhim aloqalarni ajratib ko'rsatish lozim, bolalarni suhbat yakunida qanday umumlashtirish va xulosaga olib kelish kerak.

Suhbat hodisa, faktlarni analiz qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalar o'rtasidagi muhim aloqa hamda munosabatlarni ta'kidlashdan

boshlanadi. Bunday analiz umumlashtirishga o'tishni ta'minlaydi, tarqoq faktlarni sistemaga soladi.

Xilma-xil ko'rgazmali materiallardan ham foydalanish zarur, ular bolalarga bilimlarini tinglashlariga, hodisalarning muhim belgilarini ajratib ko'rsatishlariga yordam beradi: tabiat, ob-havo kalendarlari, gerbariyalar, illyustratsiyalar. Bundan tashqari, topishmoqlar, she'rlar, qushlar ovozlarning yozuvlari foydalidir. Bu bolalarda muhokama qilinayotgan materialga nisbatan emosional munosabat uyg'otadi.

Suhbat bolalarni tabiat bilan tanishtirish metodi sifatida o'rta va maktabgacha bo'lgan katta yoshda qo'llaniladi. O'rta yoshdagi gruppada suhbat asosan hodisalarni eslatishga qo'llanilsa, katta va maktabga tayyorlov gruppalarida esa mavjud bilimlarni umumlashtiradi.

Badiiy adabiyotni o'qish. Bolalar adabiyotida tabiat turli badiiy vositalar yordamida ifodalanadi. O'z mazmuniga ko'ra tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda muhim ahamiyatga egadir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga qiziqishni, kuzatuvchilikni, bilimga bo'lgan havasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni qo'yadi, bolalarni atrofidagi tabiatga diqqat bilan harashga majbur qiladi.

Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachilar uchun katta qiymatga egadir. U kuzatilayotgan joydan chetga olib chiqadi va shu orqali bolalarning tasavvurlarini kengaytiradi, bolani bevosita idrok etolmaydigan hodisalar bilan tanishtiradi. Qitob yordamida boshqa iqlim zonalaridagi tabiat hodisalari, hayvon va o'simliklarning hayoti haqida bilish, predmet va hodisalar haqidagi mavjud tasavvurlarni aniqlash hamda konkretlashtirish mumkin. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda jonsiz tabiat hodisalarini ochib beradi, tabiatda mavjud bo'lgan aloqa va munosabatlarni aniqlashga yordam beradi. Bunda Q. Hikmat, Po'lat Mo'min, Ilyos Muslim va Q. Muhammadiylarning tabiat haqidagi she'rlari, ertaklaridan ham keng foydalanish mumkin.

Tabiatshunoslik kitobidan maktabgacha yoshdagi bolalar bilan bo'ladigan ishda turli maqsadlarda foydalaniladi. Bolalar oldiga vazifa qo'yish, bo'lajak kuzatishga qiziqish uyg'otish uchun kuzatishdan oldin kichik hikoya, ertak aytib berish mumkin.

Kuzatishlar jarayonida bolalarga maqolalar, matallar, topishmoqlar, kichik she'rlar tavsiya etiladi. Bularning obrazli tili hodisaning xususiyatlarini, predmetning ma'lum sifatlarini ajratib ko'rsatish, tabiatni estetik idrok etishni kuchaytirish imkonini beradi. Qishda muz, qor, ob-havoni kuzatayotganda tarbiyachi topishmoq va maqollardan foydalanadi.

Tabiatshunoslik kitobini tarbiyachi bolalarga kuzatishdan keyin ham o'qib beradi. Bunday holatda badiiy asarlar ko'rilganlarga yakun yasash, to'ldirish, kuzatishni chuqurlashtirishga, bolalar diqqatini tabiat hodisalarini kelgusida ham idrok etish uchun yo'llashga yordam beradi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining xikoyasidan, tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishlardan, suxbatdan foydalaniladi. Ogzaki uslub YORamida kuzatish va tabiatdagi mexnat jaraenida olgan bilimlari aniqlashtiriladi, tuldiriladi umumlashtiriladi, xamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib , ogzaki uslub bolalarning tajribasi doriasida chetga chikuvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi.

OG'ZAKI USLUB V A UNING TURLARI		
Tarbiyasining xikoyalari, ularga kuyilgan talablar	Suxbat, uning turlari	Badiiy adabiet unga kuyilgan talab
Ilmiyligi, bolalar yoshiga mos tabiatshunoslikka jonliligi	Kirish yakuniy	a.Tarbiyaviyligi g'.Xissietliligi q.Jonliligi- obrazliligi

Ogzaki metodlardan foydalanish bir qancha vazifalarni xal etadi. Tabiatga oid xikoyaning kimmati shu bilan aniqlanadiki, u ma`lum ta`limiy vazifasini xal etar ekan, maktabgacha eshdagi bolalarning tajriba va kizikishlarini nazarda tutgan xolda tuziladi va ma`lum eshdagi gurux bolalariga muljallanadi. Uning badiiy adabietni o'qishga nisbatan afzalligi mana shundadir. Xikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab akliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutkini etishiti va t`inglay olishi, xikoya davomida uni anglab olishi ogzaki tasnif asosida etarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi xmikoyasidagi vokea-xodisalarning bir-biriga boglikligi xamda munosabatlarni aniqlash va tushinishi , xikoya mazmunidagi yangiliklarni uzining avvalgi bilim bilan qiyoslab kurishi lozim.

Xikoya uchun tarbiyachi xilma- xil material : tabiatga oid shaxsiy kuzatishlarni, ajoyib kishilarning xikoyalari, tabiat xodisalari haqidagi ocherklar va xikoyalar ilmiy materilalardan foydalaniladi.

Suxbat didaktik vazifalardan kelib chikkan xolda kirish suxbati va yakuniy suxbatga bulinadi.

Kirish suxbati tarbiyachi kzutaishlar , ekskursiyalar oldin kullaydi. Maksad bulajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar urtasida aloqa urnatish maksadida bolalarni bilimini aniqlashdir.

Yakuniy suzbat bilil oliengan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustaxkamlashga yunaladi. Suxbatning samarali bulishi bolalarni oldindan kandy tayyorlanganligiga boglik. Suxbat- bu ular bilan utkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mexnat faoliyati, uyinlar. Tabiatshunoslik, kitoblarni o'qish, xikoyalar orkali tasavvurlar xosilk ilish vazifasi turadi. Tarbiyachi doimo suxbatni ta`limiyts maksadini aniq

tasavvurk ilishi kerak. Suxbat xodisa dadillarni taxlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, xodisalari urtasida muxim aloqa va munosabatlarni ta`kidlashdan boshlanadi. Bunday taxlil umumlashtirishga utishni ta`minlaydi, tarkok dalillarni tizimga soladi. Suxbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida urta, katta, atyerlov guruxlarida kullaniladi.

Bolalar adabietida tabiat turlari badiiy vositalar YORamida ifoadalanadi. Uz mazmuniga kura ilmiy bulgan tabiatshunoslik haqidagi kitob ayni vaqtda san`atning bir turidir. Uning xususiyati mana shundadir.

Tabiat haqidagi tabiat kitobidan pedagog birinchi navbatda tarbiyaiyts maksadlarda foydalanadi. U san`atning turi sifatida fakat bolaning akligagina emaS, balki uning xissietiga xam ta`sir etadi. Tabiatshunoslik kitobi bolalarda bilishga kishikishni kuzatuvchanlikni bilimga bulgan xavasni tarbiyalash uchun boy material beradi. U bolalar oldiga yangi savollarni kuyadi. Bolalarni atrofda tabitga dikkat bilan urashga majbur kiladi. Tabiat haqidagi bolalar kitobi tarbiyachining ilmiy dunekarashni shakllantirishda asosiy vosita sanaladi.

Demak, bolalarni Yuqsak e`tikodli ma`naviy barkamol ajoyib fazilatli , xushfe`l , mexnatkash, samimiy kishilar bulish tarbiyalashda badiiy adabietning urni xam kattadir. Badiiy adabietda berilgan barcha voeka xodisalar hayotiy, jonli qilib berilishi lozim. Shundagina bola shu asar kaxramonlariga ishonadi. Bolalar bog`chasi tarbiyachisi esa usha asarlar okrali tarbiya maksadlariga muvaffak bulishlari mumkin.

Mashg`ulotlar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirish mashg`ulotlari bilimlarni bolalarning imkoniyatlari hamda atrof tabiatning xususiyatlarini nazarda tutgan holda amalga oshirish imkonini beradi. Tarbiyachi rahbarligida o`tdigan mashg`ulotlarda gruppaning barcha bolalarida dastur talablariga muvofiq oddiy bilimlar shakllanadi, asosiy bilish jarayonlari va bolalarning qobiliyatlari ma`lum sistema hamda izchillikda o`stiriladi. Kundalik hayotda, kuzatish, o`yin, mehnat vaqtida bolalarning shaxsiy bilimlari yig`ilib, boradi. Mashg`ulotlar ularni aniqlash va sistemalashtirish imkonini beradi.

Bolalarni mashg`ulotlarda o`qitish turli metodlarda amalga oshiriladi. Metod mashg`ulotning turi, uning asosiy maqsadiga ko`ra tanlanadi.

Ayrim mashg`ulotlarda boshlang`ich bilimlar shakllantiriladi. Shu maqsadda tarbiyachi kuzatish, rasmlarni ko`rish, badiiy asarlarni o`qish, hikoya, diafilm va kinofilmlarni ko`rsatishdan foydalanadi. Boshqa mashg`ulotlarda esa bilimlar aniqlanadi, kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Yuqorida keltirilgan metodlardan tashhari mazkur mashg`ulotda bolalarning tabiatdagi mehnatidan ham foydalaniladi. Uchinchi tur mashg`ulotlarning asosiy vazifasi — bilimlarni umumlashtirish hamda sistemaga solishdir. Shuning uchun suhbatlar, didaktik, o`yinlar, umumlashtiruvchi kuzatishlardan foydalaniladi. Mehnat va o`yinlarda bolalar egallagan bilimlarini amalda qo`llaydilar.

Mashg`ulotlar barcha yosh gruppalarda: kichik va o`rta yoshdagi gruppalarda oyiga 2 marta, katta yoshdagi gruppalarda esa haftasiga 1 marta o`tkaziladi.

Mashg'ulotni samarali o'tishi tarbiyachining qanchalik puxta tayyorgarlik ko'rganligiga bog'liq.

Tarbiyachi «Dastur» asosida mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'radi. Bunda tarbiyachi mashg'ulotni yaxshi o'tkazishi uchun o'zi ishlaydigan, mehnat qiladigan ekologik sharoitni yaxshi bilishi talab qilinadi.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish, formalaridan yana boshqalari ekskursiya va sayrlardir. Bunda asosiy e'tibor tarbiyachining ekskursiyaga tayyorlanishi, bolalarni ekskursiyaga tayyorlashi, uni o'tkazishi, ekskursiyani yakunlashi, sayrlarni qanday uyushtirishi kabi ishlarni to'g'ri, puxta tashkil qila bilishiga bog'liq.

Bular haqida «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish» kitobida batafsil yozilgan. Shu sababli ularni takrorlamaslik uchun bu YORa ular haqida to'xtamadik.

Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish. Bolalarda oddiy izlanuvchanlik qobiliyatini oshirish ularning tabiat bilan tanishishidagi mustaqilligini, fikr doirasini oshiradi va o'ta aktiv bo'lishni ta'minlaydi. Bunday qobiliyat bolalarda tabiat hodisalarini tushunishga, uning sodir bo'lish sabablarini bilishga imkon beradi.

Bolalarda izlanuvchanlik qobiliyatini hosil qilish ma'lum sistema asosida amalga oshiriladi. U bolalarni tabiatda bo'ladigan voqea - hodisalarni ko'rish, tahlil qilish asosida turli faoliyatlari davridan boshlanadi. Shundan keyin bolalarda fikrlash qobiliyati shakllanadi, turli muammolar paydo bo'ladi. Bolalar buni fikr qilib, tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlar, uning sabablari va bir-biri bilan bog'liq ekanligini echishga intiladilar. Ular ko'rib, kuzatib, u yoki bu voqeani sodir bo'lish sabablari haqida xulosalar chiharadilar.

Izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishning navbatdagi yo'li bolalar chihargan taxminiy xulosalarni to'g'ri muhokama qilish va uni tekshirish usullarini tanlashdan iborat. Shuni aytish kerakki, izlanuvchanlik qobiliyatini oshirishni o'rganishda xulosalarni tekshirish katta rol o'ynaydi. Buni to'g'ri xulosa chiharish bilan yakunlash kerak. «Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dasturi»da belgilangan bilimni bolalarga sngdirish uchun bolaning bilishga bo'lgan aktivligini va amaliy faoliyatini oshirish zarur. Buning uchun tarbiyachi dasturdan izlanuvchanlik faoliyati yo'li bilan o'rganiladigan tabiat haqidagi bilimlarni ajratib olmog'i kerak. Shu asosda bolalarda bilishi mumkin bo'lgan hayotiy muammolar hosil qilinadi. Bolalar bu muammolarni echish uchun o'zlari tasavvur qilgan, o'ylagan fikrlar bilan uni solishtiradilar. Izlanuvchanlik faoliyati ulardan qaysisi to'g'rn-yu, qaysisi xato ekanligini aniqlashga yordam beradi.

Masalan. Bolalar tabiat burchagida navbatchilik qilib turganda dam olish kunidan keyin xina va koleus barglarini so'lib qolganini, kaktus va aloe esa juda yashnab turganini sezadilar. Tarbiyachi bu vaziyatdan foydalanib bolalar oldiga muammoli savol qo'yadi? «Nima sababdan shunday bo'ldi? Hamma o'simliklarga ham bir xilda suv kerakmi?»

Bu hayotiy munozarali muammoni bolalar bilan birga muhokama qilib, tarbiyachi rahbarligida kuzatilayotgan hodisaning sodir bo'lish sababini tushunib oladilar. Bolalar tomonidan bildirilgan birorta ham fikr e'tibordan chetda qolmasligi, bolalarning hamma farazlari to'liq muhokama qilinishi kerak. Bolalarda muhokama paytida yoki kuzatgan ob'ektiga baho berishda tug'ilgan qiziqishidan tarbiyachi foydalanib izlanuvchanlik faoliyatining ikkinchi davri — tekshirish yo'llarini tanlash va tekshirishini o'zini tekshirishga o'tadi. Tarbiyachi tekshirishning har xil yo'llaridan, hatto bolalar tavsiya etgan tekshirish yo'llaridan ham foydalanishi mumkin.

Izlanuvchanlik faoliyatini kuzatish, tajriba, sayr, tabiat burchagida, mashg'ulotlarda kamol toptirish mumkin.

Qisqa muddatli kuzatish tabiat ob'ektining har xil sifatini, xususiyatini aniqlash uchun foydalaniladi. Masalan, bolalar gullarga suv quyish zarurati haqidagi fikrlari to'g'riligini aniqlash va isbotlash uchun o'simlikning suvga chanqoqlik belgilarini izlashadi, tuproqning quruq yoki namligini, rangini, barglar holatining o'zgarishini aniqlash uchun harakat qilishadi.

Uzoq muddatli taqqoslab kuzatish tajribalar tayyor modellarni ko'rsatish (masalan, hasharotlar xususiyati), tabiat hodisalarining sababini, o'zaro aloqasini va munosabatini aniqlash uchun foydalaniladi. Tarbiyachi bolalarga hayvonlar harakatidagi o'zaro aloqani aniqlash uchun (tipratikan, quyon, qurbaqa) ularning yurishini va orqa oyoqlar harakatini kuzatishni hamda taqqoslashni topshiradi.

Tayyor modellarni ko'rsatib, hayvonlarning himoyalaniş mexanizmini tuzilishi bilan tanishtirish mumkin. Bolalar karam kapalagining g'umbagini kuzatib, ularni karam bargidan ajratish qiyin ekanligini ko'radilar. Tarbiyachi bolalarga nima uchun bunday tuzilganini o'ylab ko'rishni aytadi va o'zi uning sababini tushuntirib beradi.

Bolalarning ko'rgazmali-amaliy metodlar asosida tabiat bilan tanishib orttirgan boy tajribalariga tayanib, tarbiyachi bolalar bilimini tekshirish va bilish qobiliyatlarini aniqlash uchun qiziharli suhbatdan foydalanishi mumkin. Bu suhbat fikrlash asosida tabiatda bo'ladigan voqea-hodisalarning sababini bilishga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarning fikrlashini boshharadi va uni aniq maqsadga yo'naltiradi. Buni sayrlarda amalga oshirish mumkin.

Izlanuvchanlik faoliyati kuzatish, tajribalar, modellarni namoyish etishdan olingan xulosalar asosida yakunlanadi. Tarbiyachi bolalarga o'zlari mustaqil xulosa chiharişlarini topshiradi. U o'zi xulosa chiharişga shoshilmasdan bolalarning fikrlarini yoshitishi, qo'shimcha savollar berishi kerak. Bordi-yu, bola noto'g'ri yoki noaniq xulosa chiharsa, tarbiyachi uni to'g'rilab, tushuntirib berishi zarur.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirish vositasida izlanuvchanlik faoliyatini keng amalga oshirish asosan katta yoshdagi gruppalarda olib boriladi. Lekin buni kichik va o'rta yoshdagi gruppalarda ham amalga oshirish mumkin.

Bola tabiatga doir har qanday muammoni dastlab kattalar ko'magida, so'ngra o'zi mustaqil echa oladigan bo'ladi. Izlanuvchanlik faoliyati natijasida

bolani mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Mustaqil echilgan muammolar bolaga quvonch bag'ishlaydi. Bu quvonch uning tabiatga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi va rivojlantiradi.

Izlanuvchanlik faoliyati bolaning shakllanishida, fikr doirasining kengayishida katta ahamiyatga ega ekanligini bilgan holda har bir tarbiyachi uni doimo tashkil qilishi va buning uchun zarur shart-sharoitni yaratishi kerak.

Ekskursiya bolalarni tabiat bilan tanishtiruvchi ish shakllaridan biri. Ekskursiya davomida bolalar usimlik va xayvon jonsiz tabiat bilan yakindan tanishadi.

Ekskursiya jaraenida bolalar tabiatning guzalligini kurib katta ta'sir olish xislari rivojlanadi. Shu asosda jonajon O'zbekiston ona tabiatiga muxabbat, unga extietkorona munosabatda bulish tarbiyalanadi. Ekskursiyada mashg'ulot turi sifatida urta, katta, atyerlov guruslarida foydalaniladi. Har bir ekskursiya uchun barcha bolalar egallashlari shart bulgan dastur mazmuni belgilanadi.

Ekskursiya uning turlari

Tabiatshunoslik	Qishloq xujaligi
Bog', tuqay, daryo, utloq	Dala, parrandachilik fabrikasi, ekinzor

Ekskursiya mashg'ulotlarining afzalligi shunda, unda bolalar usimlik va xayvonlarni ular yashaydigan muxitda kurish imkogniyatiga ega bulgan uzaro aloqalar haqida dastlabki dune karash tushunchalarni, olamni ilmiy tushunishni shakllantirish imokniyatini yaratadi. Tuqay, dala, daryo, kul qirgoqlarida uyushtirilgan ekskursiya bolalarning dikkatini tortadi, tarbiyachi raxbarligi ostida gurux va tabiat burchagida olib boriladigan keyingi kuzatishlar turli-tuman materiallar tuplashga sharoit yaratadi. Ekskursiyalar orkali bolalarda kuzatuvchanlik, tabiatni urganishga kizikish usadi. Ular predmetni sinchiklab kuzatish va uning harakterli xususiyatlarini hisobga olishga odatlanadi.

Tabiatning guzalligi bolalarni chuqur xislar uygotadi, uchmas tushunchalar koldiradi. Estetik xislarining usishiga yordam beradi. Shu asosda ona tabitaga muxabbat, unga extietkorona munosabatda bulish Vatanga muxabbat shakllantiriladi.

Ekskursiyalar mazmuniga kura: tabiatshunoslik ekskursiya, qishloq xujalik ob`ektlariga ekskursiya turlariga bulinadi. Tabiatshunoslik ekskursiyaga kirish suxbati, gurux bulib kuzatish, bolalarning yakka mustaqil kuzatishlari va tabiatga xos materiallar tuplash bolalarning e`tiborini tabiatning umumiy kurinishiga tortadi.

Ekskursiya bulimdlarining mukdori va ularni utkazish izchilligi ekskursiyaning maksadi, ob-xavoga harab uzgatiriladi. Bolalar ekskursiyalarda predmetlarning harakterli xususiyatlariga xos bilimlarini mustaxkamlaydi, ularning belgisini suz bilan kursatadi, usimlik xayvonlarning bulimlari nomlarini edda tutadi. Ekskursiya insonning tabiatga kaday ta`sir etishini, usimliklarning kaday ustirishi va xayvonlarni kaday parvarish qilishni kurgazmali kursatish imkoniyatini beradi. Bu bolalar asosiy mexnat bulimlarini bir qanchasi bilan tanishadi.

Bu ekskursiyaning uziga xosligi shunda, bola inson hayotining , u ta`sir etaetgan tabiatning xam kuzatishi mumkin. Qishloq xujalik ekskursiyalarini katta mexnatining ayrim turlari bilan tanishtirish makusatida utkaziladi. Ekskursiyani uyushtirish guruxdagi mashg`ulotni uyushtirishdan kiyinrok. Shuning uchun uning muvaffakiyatli bulishi tarbiyachi va bolalarning unga puxta tayyorlanishlariga boglik.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda **sayldan** keng foydalaniladi. **Sayl** vaqtida tushunchalarni shakllanishi uchun uzoq muddat talab qilinadigan tabiat xodisalari bilan tanishtirish imokniyatiga ega buladi. Tabiat xodisalarini kundalik kuzatishlar tusatdan bulmasligi lozim. Bularni tarbiyasi oldinda rejalashtirilishi lozim. Sayl vaqtida gulzor va ekinzorlarda katta ishlarni amlaga oshirish mumkin. ekinzor va gulzordagi ish uchun bolalarni mashg`ulot maksadiga kura uyushtiriladi.

Ikkinchi kichik guruxdan boshlab maksadli sayl uyushtiriladi. Bu sayllarda bolalarni aniq tabiat xodisalari bilan tanshtiriladi. Ura katta guruxlarda bir necha kun, ba`zan xaftalab davom etadigan xodislarani kuzatish mumkin. Bu kuzatishni uzoq muddatli kuzatish deyiladi. Sayllarda ov-xavoning, osmonni , usimliklar gullarni, xazonrezlik, xayvonlar hayotidagi faslchilik uzgarishlarni kuzatish mumkin. Bu turdagi kuzatishlar uzoq muddatli kuzatishlar deyiladi, katta tayrlov guruxlarining bolalar sayldagi kuzatishlarni tabiat kalendaprda ifodalanadi. Ular bu kalendarda jonsiz tabiat, xayvonlar, usimlik hayotidagi aniq fasliy uzgarishlari, kishilarning mexnatlarini ifodalaydi .

XULOSALAR

Fan – texnika taraqqiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Bu masala mustaqil davlatimiz siyosatida o'z ifodasini topib, unda insonni o'rab turgan atrof muhit, jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash ham nazarda tutilgan.

XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshlagan ekologik ta'lim tizimi o'quv fanlari doirasida tabiatni muhofaza qilish, tabiat boyliklaridan tejab-tergab unumli foydalanishga doir bilimlar hajmini belgilash va uni o'qitishning samarali shakl va metodlarini qo'llashni tag'oza etdi. Zero, atrof muhitga ongli munosabat natijasida ekologik madaniyat shakllanadi. Bu esa, o'z navbatida, ekologik savodxonlikni tarkib toptirishdan boshlab, bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishgacha bo'lgan jarayonni oqilona tashkil etishga yo'llaydi.

Ekologik ta'lim muammolariga doir qator Bitiruv malakaviy ishlar amalga oshirilgan. Ammo bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish, xususan bu muammoni oliy o'quv yurtlari Bolalarida olib borish nazardan chetda qolgan. Shunga ko'ra maktabgacha ta'lim muassasalari Bolalari-bo'lajak mutaxassislarda atrof muhitga bo'lgan ongli munosabatni tarbiyalash va bu borada milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta'limga ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida yondashuvni tadqiq qilish bilan bog'liq hal etish zaruriyati paydo bo'ldi. Bu zaruriyat istiqbolga yo'naltirilgan hamda inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni tasdiqlaydigan ekologik madaniyat munosabatlari yotadi. Birinchi navbatda shaxsning tabiat bilan aloqador bo'lgan me'yor munosabatlarni qay darajada anglab olishga bog'liqdir. Bularning barchasi milliy-tarixiy merosimizni, boy qadriyatlarimizni o'rganmasdan chuqur va mustahkam bilimga ega bo'lmasdan amalga oshmaydi. Lekin egallangan bilimlar shaxsning amaliy faoliyatida namoyon bo'lmasa maqsadga erishib bo'lmaydi. Mazkur faoliyat turlari ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan savol-javob mashg'ulotlari, seminarlar, laboratoriya ishlari, Bitiruv malakaviy ish, kuzatishlar olib borish, chizmalar chizish, hisobotlar tuzish, ekologik kundalik yuritish, ma'ruzalar bilan chiqish, nazorat ishlari, insho va referatlar yozish, ijodiy muhokama, ekologik sayohatlarni tashkil etish yo'li bilan amalga oshirildi va o'zining ijobiy natijalarini berdi. Bu borada bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishga tizimli yondashuv va ta'limning ilg'or texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ish natijasida biz quyidagi xulosalarga keldik:

1. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning muammosi davlat va ijtimoiy buyurtmaning eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari Bolalari ekologiyaga doir bilim, malaka va ko'nikmalarga ega emasliklari, bu sohada maxsus ilmiy-metodik ta'minotning etarli darajada bo'lmaganligi muammoga hozirgi davr talablari darajasida harashni tag'oza etadi.

2. Shaxs ekologik madaniyatini shakllantirish o'zining tarixiy ildizlariga ega. Bu borada milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanish va ta'lim jarayonida ularning samarali imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning mavjud holati o'rganildi va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olayotgan Bolalarning o'ziga xos jihatlari aniqlandi. Ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi ta'minlandi.

4. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirish uzluksiz ekologik ta'lim tizimini tashkil etish orqali amalga oshirildi. Bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda tarixiy-qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatuv, anketa so'rovlari, tajriba-sinov kabi metodlar; ma'ruza, seminar, laboratoriya, amaliy mashg'ulot, sayohatlar (ekskursiya), intellektual o'yinlar; kompyuter, elektron darslik va internet vositalaridan keng foydalanildi. Auditoriya va auditoriyadan tashhari ishlar jarayonida ilg'or texnologiyalarning noan'anaviy tashkiliy shakllari va ularning samaradorlik darajasiga erishildi.

5. Barcha Bolalar uchun umumiy va har bir soha mutaxassisligi yo'nalishi bo'yicha ekologiyaga oid materiallar mazmuni boyitildi, ularning hajmi belgilandi, o'rganish metodikasi ishlab chiqildi, tajribada sinab ko'rildi. Bu esa Bolalarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishni ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy jihatdan ro'yobga chiqarishga imkon berdi.

6. Talaba ekologik madaniyatini shakllantirish mexanizmi yaratilib, quyidagi zanjir ekologik ong → ekologik bilim → ekotushuncha → ekotasavvur → ekomunosabat → ekofaoliyat → ekonatiya → ekomadaniyat tarzida ifodalandi.

7. Bolalarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda innovastion metodlardan foydalanish zarurligini tajriba tasdiqladi.

Tajriba – sinov ishlari va ularning natijalari Bitiruv malakaviy ish ishimizda o'z aksini topdi.

TAVSIYALAR

Bitiruv malakaviy ish natijalari quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalarni taqdim etishga imkon berdi:

1. Oliy o'quv yurtlari Bolalarida bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishning uzluksiz ta'lim tizimini yaratish.

2. Bolalarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishning shakllantirishda ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash tizimini amalga oshirish.

3. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishning umumbashariy ahamiyatini hisobga olgan holda, uning umummilliy ilmiy-metodik ta'minotini yaratish.

4. Bolalar ekologik madaniyatini shakllantirishda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy meros, asrlar davomida to'plagan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan ta'lim jarayonida foydalanishga erishish.

5. Bolalar ekologik madaniyatini shakllantirishda ularning mutaxassisliklarini e'tiborga olgan holda, ekologik bilimlar mazmunini boyitish va kengaytirish.

6. Yoshlarning har tomonlama yetuk inson bo'lib etishishlarida maktab, kollej, listey, oliy ta'lim va keng jamoatchilik o'rtasida mustahkam hamkorlik o'rnatish.

7. Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarida respublika o'qituvchilarini ekologiya yo'nalishida ilmiy-nazariy bilimlarini oshirish va ilg'or pedagogik texnologiya metodlari bilan qurollantirish.

8. Oliy ta'lim va boshqa davlat hamda nodavlat muassasalari bilan hamkorlikda ekologik tadbirlar, ko'rgazmali qurollar majmuini va Respublika miqyosida ommaviy tadbirlar, bayramlar sstenariylarini yaratish va ko'rik tanlovlarni muntazam o'tkazish.

9. Oliy ta'lim muassasalarida "Yosh ekolog", "Ekolog – nazoratchi", "Tabiatni sevuvchilar" klub va jamiyatlarini tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitustiyasi: O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan – T.: O'zbekiston, 2003. – 36 b.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T.: O'zbekiston, 1992. – 78 b.
3. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – T.: O'zbekiston, 1995. – 160 b.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. II tom. –T.: O'zbekiston, 1996. – 138 b.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – T.: O'zbekiston, 1996. – 350b
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. – 63 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barharorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997. – 328 b.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – 683 b.
9. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – T.: O'zbekiston, 2000. – 40 b.
10. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. VIII tom. – T.: O'zbekiston, 2000. – 341 b.
11. Karimov I.A. Uzbekiston mustakillikka erishish ostonasida– T.: O'zbekiston, 2010.
12. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. -20-29 b.
13. O'zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997. - 31-61 b.
14. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 80 b.
15. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-jild. – T.: Xalq merosi, 1993. –37-43 b.
16. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. – T.: Xalq merosi, 1993. – 255 b.
17. Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
18. Al - Buxoriy, abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 kitob, 1-k., Al - jomi' - as - sahih (ishonchli to'plam). Arabchadan Z.Ismoil tarj. – T.: Qomuslar bosh tahr. 1991. – 560 b.
19. Aluddin Mansur Qur'oni Karim. – T.: Cho'lpon, 1992. – 544 b.
20. Aminov B., Tilovov T. Odam va uning salomatligi. – T.: O'zbekiston, 1997. – 224 b.

21. Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish. Qonunlar va normativ xujjatlar. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2002. – 310 b.
22. Ahmedov K. Ozon o'pqoni muammolari. – T.: O'zbekiston, 1993. – 130 b.
23. Ahmedov B., Aminov A. Amir Temur o'g'itlari: (to'plam). – T.: Navro'z, 1992. – 64 b.
24. Tabiatshunoslik 4-sinf uchun darslik. – T.: Cho'lpon, 2001. – 240 b.
25. Mirzaev T. G'afurov Z. Tabiatni e'zozlash umumbashariy muammo. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. – 135 b.
26. Ochilov M. Muallim - qalb me'mori. – T.: O'qituvchi, 2001. – 430 b.
27. Turdiqulov E.O. Atrof muhit va inson. – T.: Bioekosan, 1996. – 28 b.
28. To'xtaev A., Tillaboeva M. Rang-barang olam. – T.: Yozuvchi, 2002. – 47 b.
29. Ergashev A. Umumiy ekologiya. – T.: O'zbekiston, 2003. – 463 b.
30. Yusupova P.A. Ekologik tarbiya. Tabiat bilan tanishtirishning yo'l va shakllari. // Maktabgacha tarbiya. – T.: 1992. – 63 b.
31. Yusupova P.A. Maktabgacha yoshdagi bololarga ekologik tarbiya berish. – T.: O'qituvchi, 1995. – 224 b.
32. O'zbek Milliy ensiklopediyasi. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2003. – 704 b. A.Tuxtayev, A.Xamidov. Ekologiya. T. 1994 yil.
33. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalalarni tabiat bilan tanishtirish T.1984 yil.
34. M.M.Markovskaya.Bolalar bog'chasida tabiat burchagi T. 1991 yil.
35. A.K.Munavvarov. «Pedagogika». T. 1996 yil.
36. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha tarbiya kontsepsiyasi. T. 1992 yil.
37. P.A.Yusupova. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xos xususiyati.»T.1995 yil.
38. K.M.Jabbarova. «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning o'ziga xosligi». T.1999 yil.